



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2024-yil
29-fevral
payshanba

№ 9 (4651)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan /

Web-site: www.postda.uz /

E-mail: info@postda.uz

QOROVUL QO'SHINLARI 25 YOSHDA



SIZLARGA TA'ZIM

**4-mart – Qorovul qo'shinlari
tashkil topgan kun**

Jasorat, sadoqat, mardlik shiori,
Kasbidan yurakda bor iftixori,
Vatan deb jo'sh urar ko'ksida ori,
Sheryurak o'g'lonlar, sizlarga ta'zim,
Tinchlikka posbonlar, sizlarga ta'zim.

Muqaddas Vatanda azizdir inson,
Qalblarda shijoat, tinchlik hukmron,
Siz borsiz, el shodon, musaffo osmon,
Ey, mard-u maydonlar, sizlarga ta'zim,
Dovrug'i dostonlar, sizlarga ta'zim.

Siz borsiz, osuda kun, oqshomimiz,
Metindek mustahkam istehkomimiz,
O'zbek deb jaranglar mudom nomimiz,
Chin ahd-u paymonlar, sizlarga ta'zim,
Jasur qahramonlar, sizlarga ta'zim.

Ko'zimiz qarog'i, Vatan jonajon,
Ertasi nurafshon hur O'zbekiston,
Kun-u tun xizmatda fidoyi posbon,
El-yurtga qalqonlar, sizlarga ta'zim,
Shiddati osmonlar, sizlarga ta'zim.



EZGU TASHABBUS

■ Samarqand viloyati

Samarqand shahar IIOFMB tomonidan joriy yilning 23–25 fevral kunlari ichki ishlar organlarida «Oila kuni» deb e’lon qilindi. Yaratilgan bu imkoniyatdan barcha xodimlar unumli foydalanib, kunni oilasi bilan madaniy hordiq olishga bag’ishladi. Kino, teatr tomoshalari, konsert dasturlari, istirohat bog’lari, muzeylarga sayohat tashkil qilindi.



Suratda: navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi, podpolkovnik Firdavs O’roqov oilasi va yaqinlari bilan.

– Baxtli hayotga erishish insoniyatning azaliy orzusi, bu istaklar esa muqaddas qo’rg’on – oila bilan chambarchas bog’liq, – deydi Samarqand shahar bo’yicha

IIOFMB boshlig’ining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari Jamshid Qobulov. – Oilada ulg’ayayotgan o’g’il-qizlar kelajagi, ularning baxtiyor-

ligida muhitning ta’siri katta. Er-xotin o’zaro hammaslak, farzandlar bilan do’stona muloqotda bo’lsa, bu oilada xotirjamlik, turmushda farovonlikni ta’minlaydi. Bilasiz,



Suratda: profilaktika katta inspektori, kapitan Sobir Umarov oilasi bilan.

ichki ishlar organlari xodimlari zimmalaridagi mas’uliyatni ado etish uchun kun-u tun xalqimiz xizmatida. Oilasiga vaqt ajratishi doim ham ko’ngildagidek bo’lmasligi mumkin. O’tkazilgan «Oila kuni» tadbirlari aynan shu maqsadlarga qaratilgan. Endilikda buni doimiy an’anaga aylantirish rejalashtirilgan.

– Turmush o’rtog’im Sardor Aqbo’tayev profilaktika inspektori uyda, oila davrasida juda kam bo’ladi, – deydi Chehroza Abdurayimova. – Ularning kasbi alohida mas’uliyatni talab qilishini bilaman va doim tushunishga harakat qilaman. Ammo bugun biz uchun juda mazmunli va maroqli o’tdi. Oilamiz

bilan muzeyga, teatrga bordik. Farzandlarim otasi bilan vaqt o’tkazayotganidan bir quvonsa, teatr tomoshasining zavqi, muzeyga sayohat o’zgacha taassurot uyg’otdi. Men bunday tadbirlar tez-tez o’tkazilishini istardim.

Bu kabi tadbirlar oilada ota-ona va farzandlar o’rtasidagi hamjihatlikni, o’zaro munosabatlarni yaxshilashga katta zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir. «Oila kuni»ni ommalashtirish esa birdamlik, ahillik, sog’lom va mustahkam oilani ta’minlash demakdir.

Umida MAMADALIYEVA,
viloyat IIB Axborot
xizmati muxbiri.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

IJTIMOIIY PROFILAKTIKA HAYOTIMIZDA O’ZGARISH YASAMOQDA

Muzrabot tumanidagi «Yo’lchi» mahallasida ijtimoiy profilaktika yo’nalishidagi ishlar samarali yo’lga qo’yilgan. Profilaktika inspektori, katta leytenant Qahramon Mo’minov bu borada faollik ko’rsatayotir. Uning o’rganishlari va xulosalari natijasida 40 nafar fuqaroga kredit ajratilgani, 20 nafar yoshning ish bilan ta’minlangani, 5 ta oila yarashtirilgani so’zimizga isbot bo’ladi.

– Asosan muammolari bor oilalarni o’rganib, ular bilan suhbat olib borgach, mavjud vaziyat haqida ijtimoiy profilaktika bo’yicha tashkil etilgan maxsus platformaga o’z xulosalarimni yozib yuboraman, – deydi katta leytenant Qahramon Mo’minov. – Xulosalar asosida esa tegishli mas’ullar, mahalla faollari, hokim yordamchisi muammolarni bartaraf qilishga yaqindan ko’maklashishmoqda.

Mahallada aholi gavjum joylarga 20 dan ortiq kuzatuv kameralari o’rnatilgan. Ular tuman IIBga to’g’ridan-to’g’ri integratsiya qilingan. Buning natijasi o’laroq, mahallada xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar, muqaddam sudlanganlar tomonidan jinoyat sodir etilmadi.

Mahalla fuqarolarini jipslashtirish oson emas. Lekin maqsadlar



mushtarak bo’lsa, buni uddalash mumkin. Qahramon Mo’minov mahalla raisi va faollari bilan birgalikda aholini bir maqsad yo’lida kurashishga undashga harakat qilmoqda. O’tgan yili mahalla hududidagi barcha ichki ko’chalar asfalt qilindi.

Yaqinda IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshlig’i, polkovnik B.Berdialiyev boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan viloyatdagi ijtimoiy profilaktika holatini o’rganildi. Bunda «Yo’lchi» mahallasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ishlar tahlili ko’rib chiqildi. Mahallada uyma-uy yurish tartibi, yoshlarning mas’ullarga birlashtirilishi, umuman, ijtimoiy profilaktika ishlari to’g’ri yo’lga qo’yilgani alohida e’tirof etildi.

Muhimi, mahallada osoyishtalik hukmron. Odamlarda profilaktika inspektoriga nisbatan munosabat ijobiy. Chunki uning katta-yu kichikka birdek yordami tegyapti.

Feruza RAHMONQULOVA,
o’z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

Ўзбек халқи жадидчилик ҳаракатининг йирик намояндаси, сиёсатчи ва жамоат арбоби Мухтор Саиджонов номини, эл-юрт олдидаги хизматларини ҳамisha хурмат билан ёдга олади ва қадрлайди.

Яқинда ИИВ Бухоро академик лицейи «Жасорат» музейида вилоят ИИБ бошлиғи ўринбосари, ММИ ва КБТХ бошлиғи, подполковник А. Юсупов, Бухоро давлат университети ҳузурлидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори, доцент А. Ҳамроев, бошқарма шахсий таркиби ҳамда ўқувчилар иштирокида маданий-маърифий учрашув бўлиб ўтди. Унда қатағонга учраган вилоят ички ишлар органлари ходимларининг номларини тиклаш ва ёш авлодга етказиш орқали уларни Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш борасида олиб борилаётган кенг қўлланма ишлар хусусида маълумотлар берилди.

Хусусан, тадбир меҳмони Мухторжон Саиджоновнинг неварани Зелимхон Саиджонов бобосига тегишли бўлган ноёб ҳужжатлар ва китоблар тўпламини тўхфа қилиб, ходимларга ўша давр хотиралари ҳақида маълумотлар бериб ўтди.

1893 йилда Бухоро шаҳрида туғилиб, вояга етган Мухтор Саиджоновнинг отаси Йўлдош Саиджонов савдогар бўлган. У аввал эски мактабда, сўнг акаси Мусожон билан Когондаги рус-тузем мактабида



БУХОРОНИНГ БИРИНЧИ ИЧКИ ИШЛАР НОЗИРИ

таълим олган. Бухоро мадрасаларида таҳсил олган. Тошкентдаги ўқитувчилар семинариясида уч синф ўқиган.

1912–1918 йиллар «Ёш бухороликлар» сафида бўлган. 1917 йилда М. Саиджонов «Ёш бухороликлар» партияси Марказий Қўмитаси аъзолигига қабул қилинади. Бу партияга асосан тараққийпарвар зиёлилар, савдогарлар ва шаҳар камбағаллари вакиллари кирган. Улар бошида демократик ислохотлар ўтказиш, конституциявий монархия ўрнатиш орқали амирнинг мутлақ ҳокимлигини чеклаб қўйиш тарафдори бўлган. Жумладан, Абдулвоҳид Бурҳонов, Муқаммил Бурҳонов, Садрриддин Айний, Усмонхўжа Пўлатхўжаев, Отаулла Хўжаев, Аҳмаджон Ҳамдий, Ҳомидхўжа Меҳрий, Муса Саиджонов, Мирзо Сирож Ҳакимлар партиянинг дастлабки ташкилотчилари эди. Кейинчалик унинг фаолиятида Фитрат, Файзулла Хўжаев ва Муҳиддин

Мансуров катта роль ўйнади.

У 1920 йил 14 сентябрда Бухоро Халқ Республикасининг биринчи Ички ишлар (дохилия) ноziри этиб тайинланади.

Кейинчалик Давлат назорати халқ ноziри, БХСРнинг РСФСР ҳукумати ҳузурлидаги махсус вакили, Бухоро Компартияси Марказий Қўмитаси масъул котиби, БХСР Марказий Ижроия Қўмитаси масъул котиби лавозимларида хизмат қилади. Бундан ташқари, «Миллий иттиҳод» ташкилотининг Бухоро шўбасида фаолият кўрсатган.

Ўрта Осиёда миллий-худудий чегараланиш ўтказилгач, аввал Зарафшон округи ижроия қўмитаси раиси, сўнгра Зарафшон округи партия комитети масъул котиби, Ўзбекистон ССР Ички савдо халқ комиссари, Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети аъзоси бўлиб ишлаган.

«Ўн саккизлар гуруҳи»нинг фаол иштирокчиси сифатида ВКП(б) МК Ўрта Осиё

бюросининг Ўзбекистондаги фаолиятини кескин қоралагани учун 1925 йил охирида бир йил муддатга партия ва шўро идораларидаги масъул лавозимлардан четлаштирилди. Шунингдек, Ф. Хўжаев бошқарган Бухоро Халқ Республикасида молия ноziрлигида, кейинроқ «Ўзбеккино» трести бошқарувчиси (1936 йилгача) лавозимларида фаолият кўрсатган.

Ёзувчи Файзулла Қиличовнинг «Мустақилликнинг фожиали йўли» номли эссесидан М. Саиджоновнинг ибратли ташаббуси ёдга олинган. Яъни, у 1934 йилда Фитратга «Амир даври, жадидлар ҳақида ҳаққоний асар ёзиб бер, биз ўша даврни ҳозирги хароб аҳволимиз билан солиштириб, ҳужжатли кино яратайлик» деган.

Фитрат ҳозиржавоблик билан Бухоро инқилобига атаб «Тўлқин» пьесасини ёзади. Афсуски, бу пьеса, Файзулла

Хўжаев ва бошқаларнинг минг уринишларига қарамасдан, ёруғлик юзини кўрмай, Санъат Бош бошқармаси сандикларида қолиб кетади.

1937 йилнинг 20 март куни қамоққа олинган Мухтор Саиджоновнинг уйида икки ўғли ва хотини изиллаб қолаверди... Сўнгра акаси Мусожон ва укаси Қурбонжон Саиджоновлар ҳам қамалди. Бухоролик 17 нафар миллий раҳбарлар билан биргаликда М. Саиджонов Тошкентда «Учлик»нинг 1937 йил 14 октябрдаги қарорига асосан, аксилинқилобий «Миллий Иттиҳод» ташкилотининг аъзоси, чет эл мамлакатлари билан доимий алоқада бўлиб, Ўзбекистонни иттифокдан ажратиш олиш мақсади бўлганликда айбланиб, отувга ҳукм этилган. Ўша пайтда у 44 ёшда эди...

Мухтор Саиджонов вафотидан сўнг 1965 йил 2 декабрда оқланган.

Мирзокул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.
Бухоро вилояти.



★ Караульным войскам — 25 лет

«ВСЕГДА ВОСХИЩАЛАСЬ ЖЕНЩИНАМИ В ПОГОНАХ»

Женщины в погонах в нашей стране сегодня не редкость. Они служат почти во всех подразделениях органов внутренних дел, включая Караульные войска. Правда попасть на службу не так просто. Кандидаты проходят строгий отбор.

Марина Петровна Пудовинникова начала свою деятельность в правоохранительных органах 16 лет назад. В настоящее время она профессионал своего дела. Перед празднованием 25-летия Караульных войск МВД Республики Узбекистан старший техник — ответственный исполнитель автомобильной службы войсковой части № 7531 младший сержант М. Пудовинникова дала небольшое интервью для нашей газеты.

— **Как вы пришли в профессию?**

— В 2002 году, после окончания экономического факультета Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, нужно было определиться с направлением деятельности. Несколько лет я оттачивала свои знания и работала бухгалтером. В 2004 году вышла замуж и переехала в Ташкент. Меня всегда восхищали женщины, носящие форменную одежду. Начинала свою службу с должности бухгалтера в войсковой части № 7531 Главного управления Караульных войск МВД Республики Узбекистан. На тот

момент меня поддерживали супруг, Станислав Малков, и свекровь, Елена Скрипкина, которые служили в той же части, что и я.

— **Какова роль наставничества в вашей службе?**

— Наставник — человек, обладающий солидным опытом, специалист, пользующийся заслуженным уважением в коллективе. Именно он находит и раскрывает сильные стороны подопечного, ведет по пути профессионального становления. Меня учила работать в финансовой службе старший сержант Нилуфар Ярлакабова, которая в данное время трудится в войсковой части № 7532. Она знающий специалист, организованная, тактичная, щедро делилась со мной опытом и знаниями.

— **Какие достижения считаете наиболее важными?**

— Приобрела большой опыт за время работы в разных подразделениях, таких как вещевая и финансовая служба. Была делопроизводителем во взводе. Сталкивалась с определенными нюансами, различными сложностями, однако находила способы

преодолевать трудности и оставаться мотивированной на своем пути профессионального роста. Еще важна здоровая атмосфера в коллективе, когда между коллегами складываются дружеские отношения и каждый готов прийти на помощь. Этим можно похвалиться в нашем подразделении. У нас сплоченный коллектив, сотрудники — квалифицированные специалисты. Многие работают здесь уже очень давно, это место стало для них вторым домом.

— **Несколько слов о семье.**

— Мой супруг, сержант в отставке Станислав Александрович, сейчас находится на заслуженном отдыхе. У нас подрастают двое детей. Дочь, Валерия, учится в десятом классе, сын, Максим, — в пятом классе. Жи-



вем дружно, поддерживаем друг друга. Идти вперед помогают любимая работа, забота о детях. Горжусь их успехами.

**Беседовала капитан
Азиза БОХОДИРОВА.**

■ Бухарская область

ГЛАВНЫЙ ДОКУМЕНТ ГРАЖДАНИНА

Сотрудники отделения миграции и оформления гражданства Бухарского районного отдела внутренних дел своевременно рассматривают и оперативно решают обращения граждан по вопросам паспортного режима. Налажено тесное сотрудничество с коллегами из других направлений и служб.

— За истекший период текущего года оформлены ID-карты более чем 2,2 тыс. соотечественникам. 745 гражданам выданы биометрические паспорта для выезда за рубеж. Аналогичные документы предоставлены 86 несовершеннолетним. Постоянная регистрация по месту жительства оформлена 812 обратившимся, временная — 47, — говорит начальник отделения капитан Феруз Худдиев.

Совместно с другими подразделениями органов внутренних дел организованы такие мероприятия, как «Паспорт-виза», «Гражданин» и «День профилактики». В ходе их проведения выявлены



На снимке: инспектор отделения миграции и оформления гражданства сержант Шамсиддин Наботов оформляет документ заявителю.

и привлечены к ответственности лица, не соблюдавшие правила. По установленным случаям составлено 164 административных протокола. Взяты на временный учет 69 иностранных граждан.

Сотрудники отделения совместно с ветеранами сферы, специалистами иных подразделений, широкой общественностью в махаллях, учебных заведениях, на предприятиях, в организациях проводят встречи и беседы, на которых говорится о значении и важности главного документа, удостоверяющего личность гражданина. Разъясняются правила оформления паспорта, его замены, порядок регистрации по месту проживания, даются консультации по другим вопросам.

Соб. корр.



FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

HAMON SAFDA

Iste'fodagi podpolkovnik Tavakkaljon Rahmatullayev ichki ishlar organlarida 23 yildan ortiq xizmat qilib, shogirdlar ehtiromida pensiyaga chiqqan. Ayni paytda Farg'ona shahar IIOFMB boshlig'ining maslahatchisi va Faxriylar kengashining raisi sifatida faoliyat ko'rsatib, sohada to'plagan boy amaliy tajribasini yoshlarga o'rgatib kelmoqda.

Bolalik yillarida u yashaydigan mahallada 10 nafardan ortiq ichki ishlar organlari xodimlari istiqomat qilardi. Tavakkaljon ularga havas qilib kamolga yetdi. Ayniqsa, yo'l-patrul xizmatida faoliyat ko'rsatadigan yon qo'shni-si Mo'ydinjon Mo'minovni ko'rganida, kelajakda albatta unga o'xshagan yurt posboni bo'lishni maqsad qilardi.

Shunday qilib, ilk faoliyatini Farg'ona shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limida oddiy inspektor lavozimida boshlagan bu yigit bo'lim boshlig'igacha bo'lgan sharafli yo'lni bosib o'tdi.

– T. Rahmatullayev shaxsiy tarkibimizning chinakam ustoziga aylangan, – deydi Farg'ona shahar IIOFMB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Farhodjon Ergashev. –

Boshqarmada unga alohida xizmat xonasi ajratganmiz. Har kuni biz bilan yelkama-yelka turib mehnat qilmoqda. Yosh xodimlarga maslahat va tavsiyalarini beradi, bilmaganlarini o'rgatadi. Shunday tajribali ustozlarning borligi bizga yanada kuch va g'ayrat beradi.

– Farg'ona shahrida 73 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud, – deydi faxriylar sardori. – Biz boshqarma rahbariyati bilan maslahatlashgan holda, barcha profilaktika inspektorlariga o'zi xizmat qilayotgan mahalladan bir nafar faxriyni maslahatchi-murabbiy etib biriktirdik. Natijada ular profilaktika inspektori bilan doimiy hamkorlikda ish olib borib, haqiqiy maslahatgo'y bo'lishyapti.

Bundan tashqari, iste'fodagi podpolkovniklar A'zamjon Murotov, Ibrohim Xoliqov, Bahodirjon Muxto-



rov, Abduqayum Kenjayev hamda iste'fodagi mayor O'rmonjon Qodirov kabi fidoyi faxriylar ham yosh xodimlarni kasbga sadoqat ruhida tarbiyalashda doimo yelkadosh bo'lib kelmoqda. Shuningdek, shahar hududidagi mahallalarning 20 tadan ortig'ida ichki ishlar organlari faxriylari raislik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Ular ham o'z mahallalarida xizmat olib borayotgan profilaktika

inspektorlariga tajribalarini bevosita o'rgatib kelayotir.

Tavakkaljon Rahmatullayev Farg'ona shahar IIOFMB rahbariyati bilan hamkorlikda yoshlarga ustozlik qilish bilan birga, Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchi 1 ming 100 nafar ichki ishlar organlari faxriylarining holidan xabar olish, ularga ehtirom ko'rsatish borasida

ham diqqatga sazovor sa'y-harakatlarni amalga oshiryapti.

Xizmat paytida salomatligini yo'qotgan hamda halok bo'lgan xodimlarning oilalaridan doimiy ravishda xabar olishmoqda. Masalan, yaqinda 30 nafarga yaqin ana shunday faxriylarga ehtirom ko'rsatildi.

Abduvosit SIDIQOV, o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

PUL HAMMA ESHIKLARNI HAM OCHAVERMAYDI

Do'stlik tumanidagi Paxtazor yo'lining 1-kilometrida xizmat olib borayotgan viloyat IIB JXX YHXB YPX batalyoni uchinchi safarbar guruhi yo'l-patrul xizmati inspektori, safdor Azamat Mamatov yuqori tezlikda kelayotgan «Nexia-3» avtomashinasiga to'xtash ishorasini ko'rsatdi. Haydovchining avtoullov harakatini keskin sekinlashtirgani xodimni sergak torttirgandi.

YPX inspektori yaqinlashganda, haydovchi ko'zini olib qochdi, uning xotirjam emasligi avtoullov yuritgichini o'chirishga urinayotgan qo'l harakatlaridan sezilib turardi. Muloqot chog'ida safdor suhbatdoshining ko'z qorachilari kengayganligini payqadi.

Bular hammasi haydovchining mast holatda ekanligiga ishora qilardi. Shu bois qonun himoya-



chisi Arnasoy tumanining «Do'stlik» mahallasida yashovchi B.T.ni «Alkostop 8000 S»da tekshiruvdan o'tkazdi. Qurilma haydovchining spirtli ichimlik ta'sirida ekanligini ko'rsatdi.

Xodim holat yuzasidan tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtirib, avtomashinani jarima maydoniga qo'yish choralarini ko'ra boshladi. Kutilmaganda haydovchidan piyodaga aylanib qolayotgani B.T.ni

cho'chitib yubordimi, inspektorga 1 million so'm hamda 400 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi. Buning evaziga safdor bayonnoma ni yo'q qilishi hamda avtomashinani jarima maydonchasiga qo'ymasligi kerak edi.

Inspektor B.T.ning mazkur xatti-harakati qonunga zid ekanligini tushuntirdi. Haydovchi esa: «Erkakchilikda hamma narsa bo'lishi mumkin», – deya falsafa to'qib, pora tiqishtirishda davom etdi. Gumonlanuvchi o'tkazilgan tezkor tadbir davomida haydovchi 1 million so'm hamda 400 AQSH dollarini safdor Azamat Mamatovga pora tariqasida berayotganida qo'lga olindi. Qisqasi, pul hamma eshiklarni ochishiga ishongan B.T.ning jinoyiy javobgarlikka tortilishi naqd bo'lib turibdi.

Alijon ABDUSATTOROV, o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

★ Страницы недавней истории

НЕ СМИРИВШИСЬ С НЕСПРАВЕДЛИВОСТЬЮ

В ходе печально известных «расследований», осуществлявшихся в Узбекистане группой «десантников» Генеральной прокуратуры бывшего Центра, первый заместитель министра внутренних дел республики генерал-майор Георгий Иванович Давыдов стал жертвой коварной клеветы.

Родился Георгий Давыдов 27 мая 1928 г. в Ташкенте в семье служащих. Его юность пришлось на тяжелые военные годы. Будучи подростком, в 1943 г. начал трудовую деятельность на 84-м военном авиационном заводе, где работал пирометристом, токарем.

Жажда знаний, целеустремленность, желание стать профессионалом привели его сначала в вечернюю школу, а затем в Ташкентский политехнический институт. После окончания вуза с 1953 г. с большой отдачей трудился инженером-технологом на предприятиях Минсредмаша в Кыргызстане.

В 1957 г. после возвращения в Ташкент энергичного, обладающего организаторскими способностями специалиста назначили старшим инженером отдела химической промышленности Госплана республики.

С 1960 г. Георгий Давыдов на партийной работе: прошел путь от инструктора отдела промышленности, заместителя заведующего отделом тяжелой промышленности и машиностроения республиканского аппарата до второго

секретаря Наманганского обкома.

В 1968 г. Георгий Иванович направляют на руководящую работу в органы внутренних дел республики. Он был назначен на должность первого заместителя министра. Проявляя инициативу и требовательность, курировал и направлял деятельность аппаратов исправительно-трудовых учреждений, спецперевозок, строительных организаций ведомства и др. Пристальное внимание уделял выявлению недостатков и упущений, укреплению материально-технической базы подразделений.

В архивных документах, характеризующих Г. И. Давыдова, подчеркивается: «Имея хорошую теоретическую подготовку, широкую эрудицию и большой опыт работы..., исключительно серьезно отнесся к новому назначению»; «В решении вопросов принципиален». Отмечается его личностное качество – чувство высокой



ответственности за порученное дело.

Под руководством Георгия Ивановича осуществлялись меры по совершенствованию оперативно-служебной деятельности вверенных подразделений, усилению кадрового потенциала. Много внимания уделял внедрению в ИТУ, следственных изоляторах технических средств охраны. В те годы был возведен ряд объектов, в том числе сложное инженерное сооружение – здание мини-

стерства, на местах – административные корпуса ОВД. Существенен вклад Георгия Давыдова в удовлетворение потребностей подразделений в автотранспорте, средствах связи, приборах и оборудовании, что способствовало решению задач по борьбе с преступностью.

Георгий Иванович заслужил авторитет среди личного состава ОВД, в государственных и хозяйственных органах. В 1972 г. ему присвоено звание генерал-майора. Был награжден орденами «Знак Почета», «Трудового Красного Знамени», медалями «За доблестный труд», «За безупречную службу», «За отличную службу по охране общественного порядка», нагрудным знаком «Заслуженный работник МВД», удостоен почетного звания «Заслуженный инженер».

На ответственной должности в системе МВД генерал-майор Давыдов прослужил до 1985 г. В тот год на него обрушилась волна клеветы. «Десантники», известные сомнительными методами расследования, стремились очернить его. Лживые обвинения тенью легли на репутацию, честь и достоинство генерала.

...После трагического события во внутреннем кармане пиджака Георгия Ивановича, висевшем в шкафу госпитальной палаты, было обнаружено предсмертное письмо, в котором он выражает негодование по поводу беззакония и произвола, утверждает, что не может смириться с несправедливостью:

«За всю трудовую жизнь не имел взысканий, ничем себя не запятнал. Горько и обидно... Сейчас, по-моему, стало легче обогатить ответственного работника, чем когда-либо... Не могу ничего понять, сердце – сплошная кровавая рана...

Я вынужден сам принять крайнюю меру к сохранению своей чести и достоинства. А перед этим – не лгут!

Давыдов (подпись).
16 мая 1985 г.».

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

KASB FIDOYILARI

ENG FAOL INSPEKTOR

Tungi soat 01:30lar. Qahraton qishning shashti baland. Urganch shahridagi Navoiy ko'chasida xizmat vazifasini o'tayotgan viloyat IIB JXX JTSP PPX batalyoni 2-otryad bo'linma komandiri, serjant Sanjar Sotimov va safdor xodim, safdor Nodir Xudoyberganov o'zlariga birlashtirilgan hududni hushyorlik bilan nazorat qilishyapti. Bir qaraganda shahar tinch-osoyishtadek, ammo...

Shu payt ko'chani narigi tomonidagi go'sht do'koni eshigini ochishga urinayotgan bir kimsaning xatti-harakati osoyishtalik posbonlari e'tiborini tortdi. Serjant Sanjar Sotimov darhol hamkasbiga avtomashinani shu tomonga haydashni buyurdi. Markaziy ko'cha bo'ylab harakatlanib kelayotgan patrul mashinasiga ko'zi tushgan talonchi do'kning yon tomoniga yashirindi. Serjant buni aniq ko'rdi va hamrohiga mashinani do'kon ro'parasida to'xtatishni buyurdi. Buni kutmagan haligi kimsa ko'p qavatli uylar tomon qocha boshladi. Sanjar sherigiga

ko'chani janub tomonidagi chiqish qismiga borishini tayinlab, o'zi uning iziga tushdi. Tungi sharpa o'ng tomondagi bino ro'parasida g'oyib bo'ldi. Uning uzoqqa ketolmaganiga ishonch hosil qilgan serjant yon-atrofni ziyraklik bilan kuza-ta boshladi. Shu payt bolalar maydonchasidan arg'imchoqning tebrangan tovushi eshitildi. Serjant darhol shu tomonga yurdi. Qorong'ilikdan otilib chiqqan shubhali kimsa piyodalar yo'lakchasi bo'ylab qochishga urindi. Ammo serjant S.Sotimov



chaqqonlik bilan harakat qilib, uni yerga qulatti... Urganch shahar IIOFMB 1-sonli IIBga olib kelingan gumonlanuvchi o'tkazilgan surishtiruvlar davomida qidiruvdagi shaxs ekani ma'lum

bo'ldi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi faol ishtiroki uchun serjant Sanjar Sotimov boshqarma rahbariyati tomonidan rag'batlantirildi.

Harbiy xizmatdan qaytgan Sanjar Sotimov viloyat IIB JTSP PPX batalyonida xizmat faoliyatini boshladi. Viloyat IIB Alohida vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadiga bo'linma komandiri lavozimida davom ettirdi.

Shuningdek, u turli ko'rik-tanlovlarda, sport musobaqalarida ham faol qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi.

– Sanjar Sotimov katta bilim va tajribaga ega bo'lgan fidoi xodimlarimizdan biri, – deydi PPX batalyoni komandirining o'rinbosari, podpolkovnik Alijon Davlatov. – U har bir topshiriqni aniq va o'z vaqtida bajarishga harakat qiladi.

Ayniqsa, yosh xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishda uning xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Kichik serjant Zafar Rahimboyev, safdorlar Nodir Xudoyberganov, Hamid Saparboyev, Mo'minjon Xudoyberganov singari ko'plab yosh xodimlar Sanjar Sotimovni ustoz sifatida hurmat qilishadi.

Serjant S.Sotimov, 23 yildirki, ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib kelmoqda. U o'tgan yillar davomida ko'plab jinoyatlarni fosh etishda shaxsan faollik ko'rsatgan, qidiruvdagi shaxslarni qo'lga tushirishga erishgan. O'tgan yil yakuni bo'yicha viloyat miqyosida «Eng faol patrul-post xizmati inspektori» deya e'tirof etilgan.

Xudoybergan JABBOROV, o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.



TAJRIBADA GAP KO'P

Dilshod akasi, hozirda Milliy gvardiya Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasida xizmat qilayotgan serjant Yoqub Shonazarovga havas bilan ulg'aydi. Chiroqchi tumanidagi 131-sonli maktabni bitirgach, harbiy xizmatni o'tadi. So'ng ichki ishlar organlarida xizmat qilish uchun Qashqadaryo viloyati IIBga hujjat topshirdi. Sinovlardan o'tib, 2003-yilda viloyat IIB Qo'riqlash boshqarmasi «Talimarjon» AMBda xizmatni boshladi. Kasb sirlarini ustoz – serjant Xursand Bobojonovdan o'rgandi. Olgan saboqlari xizmat davrida asqatdi.

Kichik serjant D. Shonazarov o'tgan yillar davomida burchga sodiqligi, sergakligi va xushmuomalaligi, topshiriqlarni kam-ko'stsiz bajarishi bilan hamkasblari o'rtasida hurmat qozondi.

Bugungi kunda viloyat IIB nazorat-o'tkazish punkti nazoratchisi vazifasida ishlayotgan lavhamiz qahramoni boshqarmaga kelgan fuqarolarga murojaati bo'yicha yo'nalish berish, ish bilan shahar-tumanlardan kelgan xodimlarning binoga kirib chiqishini nazorat qilishda faollik ko'rsatmoqda.

– Boshqarmaga har xil toifadagi, turli tabiatli insonlar murojaat etib kelishadi, – deydi kichik serjant Dilshod Shonazarov. – Masalan, ayrim fuqarolar jahli otiga minib keladi. Ularga to'g'ri muomala qilish, tushuntirish

orqali har qanday masalaga yechim topish mumkin. Bu jarayonda menga ko'p yillik tajribam juda qo'l keladi.

Kechagi shogird bugun yoshlarning ustoz. Dilshod Shonazarovdan bugun ko'pgina shogirdlari maslahat olib turishadi. Nazorat-o'tkazish punkti nazoratchilari – safdorlar A.Ziyodov va B.Shodiyev uni ustoz deya e'zozlashadi.

Kichik serjant Dilshod Shonazarov 4 nafar farzandni el koriga kamarbasta qilib tarbiyalamoqda. O'g'li Ramazon Gubkin nomidagi universitetning Toshkent filialida ta'lim olmoqda.

Sodiq RAHIMOV, o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



IIV QOROVUL QO'SHINLARI – 25 YOSHDA

ISLOHOTLAR — YUQORI SAMARADORLIK GAROVI



So'nggi yillarda mamlakatimiz jahon talablariga javob beradigan Qurolli Kuchlarni barpo etish, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash, barqaror va izchil taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo'lgan milliy armiyamizni shakllantirish yo'lida Oliy Bosh Qo'mondon rahbarligida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zining boy va shonli tarixiy yo'lga ega bo'lgan Qorovul qo'shinlari mamlakatimiz tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2020-yil 7-yanvardagi qarori asosida Toshkent, Buxoro, Andijon hamda Navoiy viloyatlarida yangi qo'shilma va harbiy qismlar tashkil etildi, ularning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi tubdan qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy jihozlanishi yo'lida ulkan ishlar qilindi. Qo'shinlarning jangovar va safarbarlik shayligini tashkil etishda asosiy e'tibor harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish, jangovar shaylik rejalarini qayta ishlab chiqishga qaratildi. Barcha harbiy qismlar va bo'linmalarda jangovar taktik o'quvlar dunyoda yuz berayotgan real voqeelikka asoslangan holda tashkil etilyapti.

Shuningdek, qo'shinlarga qarashli harbiy qismlarda ilk bor maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'linmalar tashkil etildi. 2022-yilda mazkur vzvodlar tarkibi yangidan tuzilib, maxsus tayyorgarlik va moddiy ta'minot bo'yicha komandir o'rinbosari, yo'riqchi portla-

tuvchi, mergan, radioaloqachi, katta texnik haydovchi, o'qchi-feldsher va yengil zirxlangan texnika haydovchisi kabi lavozimlar joriy etildi. Mazkur yildan e'tiboran, «Dovyurak jangchi» farqlovchi nishonini olish uchun intensiv sinovlar o'tkazilib kelinmoqda. Uning natijalariga ko'ra, hozirgacha 29 nafar harbiy xizmatchi ana shunday nishon bilan taqdirlandi.

Shaxsiy tarkib tayyorgarligining intensivligi va sifatini kuchaytirish, shuningdek, jangovar va tezkor tayyorgarlik bo'yicha turli mashqlar o'tkazish, harbiy qismlarning jangovar shayligini va boshqaruvini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning amaliy ko'nikma va mahoratini oshirish maqsadida



o'tgan yili 3 marotaba qo'mondonlik-shtab mashqi, 280 dan ziyod shtab, taktik-maxsus va taktik-saf mashqlari hamda 3 marotaba jangovar shaylik tekshiruvlari o'tkazildi. Buning natijasida, Qo'shinlarning

jangovar tayyorgarlik darajasi yanada oshirilishiga erishildi. Shuningdek, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari Akademiyasida «Qorovul qo'shinlari qo'mondonining maxsus sinfi» ochildi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va burchga sadoqat ruhida tarbiyalashda polkovniklar Ravshanbek Rozumov va Jasur Sagdullayev, podpolkovnik Aziz Yusupov, mayorlar Rahmat Quliyev va Muhammadali Oblaqulov hamda kapitan Bekzod Muhiddinov, soha faxriylari iste'fodagi podpolkovniklar Ne'mat Do'stov va Asqar Davlatovlarning xizmati beqiyos bo'lmoqda.

Kun sayin shiddat bilan o'zgarib borayotgan jahon geosiyosatidan kelib chiqqan holda kelgusida ham Qo'shindagi islohotlar doirasida amaliy ishlar davom etaveradi.

Qo'shinlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi to'rt yil davomida 1600 nafarga yaqin harbiy xizmat-



nish va ijobiy hal etish borasidagi manzilli sa'y-harakatlar ham kutilgan natijalarni bermoqda. Kelgusida ularning ko'pchiligi hayotini shu soha bilan bog'lashga ahd qilishyapti. Qo'shinlar safida xizmat qilayotgan yurtimiz posbonlarining 60 nafari respublika,

18 nafari esa, xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritishdi. Yurtimizda o'tkazilayotgan sport musobaqalari va chempionatlarida ham ko'plab yutuqlarga erishib, o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini barchaga namoyish etishdi. Shu boisdan ham qo'shinlardagi sportchilarning 15 nafari «Sport ustasi», 20 nafari esa «Sport ustaligiga nomzod» va «Xalqaro toifadagi sport ustasi» unvonlariga erishishdi.

Fursatdan foydalanib, barcha harbiy xizmatchilarni va faxriylarni yaqinlashib kelayotgan 4-mart – Qorovul qo'shinlari tashkil topganligining 25 yilligi bilan samimiy muborakbod etaman! Ularning fidokorona xizmatlari evaziga IIV harbiy tuzilmalari izchil rivojlanib, jangovar qobiliyatimiz va mudofaa salohiyatimiz mustahkamlanib, buning natijasida xalqimizning farovon hayoti ta'minlanmoqda. Barchaga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, tinchlik-xotirjamlik tilayman.



Hasan BOTIROV,
IIV Qorovul qo'shinlari
qo'mondoni,
polkovnik.



OTAM BILAN FAXRLANAMAN

Vatan himoyachisi degan nom inson sha'nini sharafta burkaydi. Ne baxtki, otam III darajali serjant Nodirbek Suyumov IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Namangan viloyatida joylashgan 7552-harbiy qism 2-o'qchi vzvod 2-o'qchi guruhining qorovul boshlig'i bo'lib xizmat qiladi.

2001-yilda Qorovul qo'shinlari safiga qabul qilingan padari buzrukvorim uzoq yillik faoliyati davomida ko'plab ko'rik-tanlovlar g'olibi bo'ldi. Namunali faoliyati bilan hozirgacha safdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotir.

Harbiy xizmatchi bo'lgan otam tufayli ko'plab imtiyozlardan foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, 2020-yilda Namangan shahri Davlatobod tumanidan subsidiya asosida imtiyozli uy-joyga ega bo'ldik. O'tgan yili imtiyozli tavsiyanoma asosida Namangan davlat universiteti talabasi bo'ldim.

Akam Salohiddin Ilhomjonov ham ota izidan borib, Qurolli Kuchlar Akademiyasining 3-bosqichida tahsil olmoqda. Singlim Muslima esa maktab o'quvchisi. Onam Charosxon Nishonova Pop tumani hokimligi xotin-qizlar bo'limi mutaxassisi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Ota-onam bizning bilim olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Mo'jazgina oilaviy kutubxonamiz ham bor. Badiiy kitoblar o'qib, dam olish kunlarida ota-onam bilan birgalikda dasturxon atrofida o'qiganlarimiz yuzasidan suhbatlar tashkil qilish an'anaga aylangan. Bu esa dunyoqarashimizni yanada oshirib, tafakkurimizni kengaytirishga xizmat qiladi.

Otamning talabchanligi, biz farzandlarga e'tibori tengdoshlarimning ham havasini keltiradi. Men otam Vatan himoyachisi ekanligidan doimo faxrlanaman.

Mohinur ILHOMJONOVA,
Namangan davlat universiteti talabasi.



Tohir SOATOV,
IIV Qorovul qo'shinlari Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi polkovnik.

«USTOZ-SHOGIRD» AN'ANASI BARDAVOM

1993-yilda IIV Ichki qo'shinlari qo'mondonining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandim. Bu paytda qo'shinlarga ofitser kadrlar yetishmasdi. Bunga barham berish uchun yaqin orada nafaqaga chiqqan ofitserlardan xohlovchilari yana xizmatga qaytarildi. Serjantlar orasidan eng layoqatli tezkor o'qitilib, ofitserlik unvoni berildi. Fuqarolik oliy ta'lim muassasalarini tugatgan zaxiradagi ofitserlar xizmatga qabul qilindi.

O'tgan davrda IIV Qorovul qo'shinlari mashaqqatli va sharafliligi yo'lni bosib o'tdi. Mana, qo'shinlar tashkil etilganiga ham 25 yil to'lmoqda. Shaxsiy tarkib o'rtasida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish, askarlarning jangovar ruhini

ko'tarish ustida muntazam shug'ullanish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tuzilmalari faxriylari «Ustoz-shogird» an'anasini davom ettirgan holda, yosh mutaxassislariga o'z tajribalarini baham ko'rib, ularni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shib kelishyapti. Shu jumladan, IIV Qorovul qo'shinlari Faxriylar kengashi ham qator vazirlik va tashkilotlar bilan samarali ish olib bormoqda.

Fursatdan foydalanib, IIV Qorovul qo'shinlari harbiy xizmatchilari va faxriylarini qutlug' sana bilan muborakbod etaman. Yurt tinchligi yo'lida olib borayotgan sharaflilari xizmatlarida muvaffaqiyat va zafarlar yor bo'lsin!




HAMKASBLARIMIZ HAQIDA

Katta serjant Baxtiyorjon Musulmanovda harbiy xizmatchi bo'lish orzusi bolalikdan yo'ldosh. Amakisi Shavkat Xoliqovning chorak asr harbiy xizmatchi bo'lgani va uyga formada kelishi uning orzusiga sabab bo'ldi. Baxtiyorjon G'uzor tumanidagi o'rta maktabni bitirib, yigitlik burchini IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli poytaxtimizda joylashgan 7534-harbiy qismda o'tadi.

Uning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyati va qiziqishini sezgan harbiy qism rahbariyati muddatli harbiy

xizmatni tugatgan Baxtiyorjonga shartnoma asosida xizmatni davom ettirishni taklif qildi. Shu tariqa, mazkur harbiy qism 2-batalyonida shartnoma asosida vzvod nazoratchisi lavozimida faoliyatini boshladi.

O'tgan davr mobaynida tinimsiz izlanib, sohaga oid bilim va ko'nikmasini oshirdi. Ustozi, katta serjant Qahramon Xidirovdan kasb sir-asrorlarini o'rgandi. Qarshi shahridagi 7533-harbiy qism 3-batalyon nazoratchisi lavozimida xizmatni davom ettirgan B. Musulmanov Tosh-



kent avtomobil yo'llari texnikumida sirtidan tahsil olishga ham ulgurdi.

IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Buxoro viloyatidagi 7536-harbiy qism saf bo'linmasi boshlig'i, leytenant Umrzoq Eshonqulov hamda 7533-harbiy qism mas'ul ijrochisi, kichik serjant Pahlavon Sayfulayevlar uni ustoz sifatida qadrlashadi.

Mana chorak asrdiki, yurtga va kasbiga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan Baxtiyorjon turmush o'rtog'i Rayhonaxon bilan o'g'li Quvonchbek tarbiyasida ham so-bitqadam.

– Ustoz sifatida yoshlarning bilim va malakasini oshirishga munosib hissa qo'shmoqda, – deydi ushbu harbiy qism komandirining birinchi o'rinbosari – shtab boshlig'i, mayor Boburjon Ismoilov. – Bundan tashqari, barcha tadbirlarda faol ishtirok etish bilan birga, boshqalarni ham bunga jalb etadi.

O'z vazifasini yaxshi bilishi, tishqoqligi, hamkasblariga doimo ko'maklashishi bilan jamoada obro'topgan.

Sardorbek TURSUNPO'LATOV,
kichik serjant.

Qashqadaryo viloyati.

CHORAK ASR XIZMATDA

ILM-FAN, TA'LIM VA TARBIYA, MA'NAVIYAT BIZ UCHUN USTUVOR MASALADIR

Sivilizatsiyalar tarixiga nazar tashlasak, insoniyat har qanday buyuk ixtirolar-u kashfiyotlarga faqatgina ilm-fan yutuqlari asosida erishgan. XXI asrning texnologiyalar asriga aylanishi asosida ham ayni shu haqiqat o'z ifodasini topgan. Dunyoning eng ilg'or davlatlarida ilm-fan, ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Chunki yurt ravnaqi va istiqboli aynan shu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin. Shu bois Yangi O'zbekistonda ham ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sport, san'at, ma'naviyat singari barcha sohalarida o'sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundan-da yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'kidlash joizki, qisqa vaqt ichida ma'rifat, ta'lim, ilm-fan sohalarini rivojlantirish uchun

o'rnatish, yurtimizda nufuzli chet el universitetlarining filiallarini ochish kabi ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldiradi. Tarbiya ta'limga nisbatan keng qamrovlidir. Ta'lim aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Lekin insonning ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarini birdek qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya doimo birga bo'lishi talab etiladi.

Umumiy ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar sifatida badiiy ijod, san'at, madaniyat yo'nalishlarida maxsus maktablar barpo etilganligini e'tirof etish joiz. Qoraqalpog'istonda Ibroyim Yusupov, Jizzaxda Hamid Olimjon va Zulfiya, Namanganda

yoshlarning boshqa sohalarga bo'lgan qiziqishlari ham e'tiborga olinib, respublikamizda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil qilindi.

Davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda, «biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz».

Prezidentimizning «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda, ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning

Ilm-fan, ta'lim-tarbiya va ma'naviyat mamlakatimizda azaldan ustuvor masala bo'lib kelgan. Davlat rahbari raisligida 2024-yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotgani bejiz qayd etilmadi.

Mazkur yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan turli yo'nalishlar, xususan, ma'naviyatga oid ustuvor vazifalar o'rta tashlanib, muhim tashabbuslar ilgari surildi. Davlatimiz rahbarining bildirgan takliflari jamiyatimizning ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga xizmat qi-

va madaniyat yo'nalishidagi tashabbuslari yurtimiz ravnaqi yo'lida ilm-fan va ma'naviyat tizimlari borasida ilmiy izlanishlarni olib borish, bu sohani rivojlantirishda aniq takliflarni ishlab chiqish, uni yanada rivojlantirishda yangi istiqbollarni ochishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual, ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy tex-



ladigan konseptual asos bo'ldi. Ustuvor konsepsiya sifatida, avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozimligi ta'kidlandi.

nikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy-moliyaviy infratuzilmaga oid islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Darhaqiqat, qaldirg'och ham o'z uyasini butlash payida bo'ladi. Biz ham biror narsa qurmasak, yaratmasak, shu ona yurtning tuzini oqlagulik xayrli ish qilolmasak, yashamoqdan ma'no bormi?! Hayotda kimdir ilmi, yana kimdir hunari bilan o'zidan muhim iz qoldiradi. Zero, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallash, elga nafi tegadigan kasb-hunar sohibi bo'lish, ma'naviy komillik insonning asosiy ehtiyojidir.

**Azizjon FAYZIYEV,
mayor.**

o'ttizdan ortiq qarorlar, farmonlar, farmoyishlar va qonunlardan iborat huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda Vatanga sadoqatli yangi avlodni voyaga yetkazish mexanizmlarini yaratish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonning keyingi taraqqiyoti jarayonida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta'lim tizimini dunyo standartlariga moslashtirish, xalqaro reytinglarga kiritish, o'quv yurtlariga qabul qilishda adolatli tizimni



Ibrat, Farg'onada Erkin Vohidov, Qarshida Abdulla Oripov, Xorazmda Ogahiy, Sirdaryoda Halima Xudoyberdiyeva, Andijonda Muhammad Yusuf nomlari bilan atalgan adabiyot va ijtimoiy soha maktablari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek,

ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning ma'naviyat

4-MART – QOROVUL QO‘SHINLARI TASHKIL TOPGAN KUN



SALOHIYATLI KOMANDIR

Asli Toshkent viloyati-da tug‘ilgan Abdula-ziz Saliyev bolalikdan biror ishga qo‘l ursa, yakuniga yetkazmaguncha qo‘ymasdi. Uning tirishqoqligiga tengdoshlari havas qilishardi. Lavhamiz qahramoni IIV Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgach, 7534-harbiy qismda guruh komandiri, vzvod komandirining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, vzvod komandiri, batalyon shtabi boshlig‘ining nazoratchilar xizmati bo‘yicha o‘rinbosari, 7533-harbiy qismda 1-o‘qchi batalyon komandiri lavozimlarida samarali xizmat qildi.

2017-yildan faoliyatini Navoiy viloyatidagi 7532-harbiy qism komandirining birinchi o‘rinbosari – shtab boshlig‘i sifatida davom ettirgan lavhamiz qahramoni ayni paytda Zarafshon shahridagi 7551-harbiy qism komandiri lavozimida xizmat olib bormoqda. Amaldagi qonunchilik va Umumharbiy nizomlarga muvofiq ish ko‘rishi, yuksak komandirlik salohiyati tufayli qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilari orasida obro‘-e‘tibor qozondi. Yillar davomida to‘plagan boy tajribasi va bilimlarini ofitserlar-ga qunt bilan o‘rgatadi.

Shaxsiy tarkib o‘rtasida harbiy intizom va qonuniylilikni

mustahkamlash hamisha uning diqqat markazida. Harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi va jangovar shayligini oshirishga alohida e‘tibor qaratib kelyapti. Bunda o‘quv mashg‘ulotlari va mashqlarining yuqori saviyada tashkil etilayotgani muhim omil bo‘lmoqda.

Harbiy qismda qisqa vaqt ichida Madaniyat markazi barpo etildi. Undan ma‘naviyat va ma‘rifat xonasi, vatanparvarlik burchagi, o‘quv zali, kutubxona, psixologik trening xonasi o‘rin olgan. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar uchun mo‘ljallangan yotoqxonalar, maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari to‘liq ta‘mirlandi. 300 kishiga mo‘ljallangan askarlar oshxonasi yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.

– Askarlar uchun yashash sharoitlarni yaxshilash borasida amalga oshirgan ishlarimiz kelgusida ularning xizmat samaradorligi yanada oshishida muhim omil bo‘lishi shubhasiz. Qolaversa, askarlarning ota-onalari ham farzandlarini ko‘rgani kelishganida yaratilgan qulayliklarni ko‘rib mamnun bo‘lishyapti, – deydi polkovnik Abdulaziz Saliyev.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

ORZULAR RO‘YOBI

Ayol – ona, oila bekasi. U Yaratganning mo‘jaz va nafis xilqati. Xotin-qizlarni har qancha e‘zozlasak kamdir. Ular jamiyat rivoji, el-yurt tinchligi yo‘lida barcha sohalarda, hatto harbiylikda ham erkaklar bilan yelkama-yelka turib xizmat qilayotgani tahsinga loyiqdir.

Istiqlol tengdoshi bo‘lgan Madina Qarshi shahrida tug‘ilgan. U maktabni tamomlab, Shayxali maishiy xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejida elektron hisoblash markazi operatori yo‘nalishida o‘qidi.

Madinaning onasi iste‘fodagi katta serjant Luiza Husanova IIV jazoni ijro etish tizimida ishlagan. Otasi, iste‘fodagi katta serjant Mahmud Turdiyev esa IIV Qorovul qo‘shinlari tarkibida 20 yildan ortiq xizmat qilib pensiyaga chiqqan. Turmush o‘rtog‘i Bekzod Abdusalomov ham 2016-yilda IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli poytaxtimizdagi 7531-harbiy qismga shartnoma asosida xizmatga kirdi. Hozir 7533-harbiy qismda xizmatni davom ettiryapti.

Yaqinlariga havas qilgan Madina ham 2019-yilda IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli Toshkent shahridagi 7534-harbiy qismga hujjat topshirdi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib, 3-toifali nazoratchi sifatida xizmatni boshladi. Ustozi, katta serjant Feruza Abdurahmonovadan kasb sirlarini o‘rgandi. O‘tgan qisqa vaqt davomida u oila yumushlarini ham, harbiy xizmatni ham uddalab, namunali xodima sifatida shakllandi.



– Yoshligimda ota-onamning xizmatdan qaytishini intizorlik bilan kutardim, – deydi kichik serjant Madina Fayziyeva. – Ularning el osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilayotganidan faxrlanardim. Hozirda mening ham Vatan himoyachisi bo‘lish to‘g‘risidagi orzuyim ro‘yobga chiqdi.

Turmush o‘rtog‘i Bekzod Abdusalomovning qo‘llab-quvvatlashlari natijasida yosh xodima ikki nafar farzandining tarbiyasida ham sobitqadam. Bugungi kunda IIV Qorovul qo‘shinlariga qarashli 7533-harbiy qism 4-batalyon 3-toifali nazoratchisi lavozimida xizmat qilayotgan kichik serjant Madina Fayziyeva zimmasidagi vazifani sharaf bilan ado etib kelmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Урок духовности и просвещения

НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ВОСПИТАНИЕ И ДУХОВНОСТЬ – ПРИОРИТЕТНЫЙ ВОПРОС

Сегодня сфера духовности должна опережать на десять шагов другие сферы, духовность должна превратиться в новую силу, в новое движение!

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

В современных условиях важное значение приобретают вопросы образования молодежи, раскрытия ее научного и творческого потенциала. Ибо только нравственно здоровое, высокоинтеллектуальное общество может противостоять обостряющимся вызовам и угрозам.

Центральная Азия с древних времен является очагом науки и культуры. Во всем мире известны такие ученые, как Абу Наср Фараби, Ахмад Фергани, Абу Али ибн Сино, Муса Аль-Хорезми, Абу Райхан Беруни, Мирзо Улугбек, внесшие бесценный вклад в мировую цивилизацию. Достойную лепту в прогресс национальной государственности, в просвещение внесли представители джадидизма Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркори Абдурашидхонов, Абдурауф Фитрат, Абдулла Кадыри, Абдулхамид Чулпан, Исохон Ибрат и др.

помещения в школах. При этом 100 частных учебных центров в сельских районах с высокой успеваемостью учащихся на срок до полугода получают компенсацию расходов на аренду помещений.

Цифровизация общества и государства требует наличия навыков работы с информационными продуктами. В связи с этим дан старт проекту «Два программиста



Наследие великих предков – источник, питающий духовность нашего народа. Современный Узбекистан следует по пути просвещения при осуществлении любых преобразований.

В Стратегии «Узбекистан – 2030» в качестве приоритетов определены вопросы совершенствования сфер образования, науки, воспитания молодежи. В Государственной программе по ее реализации в Год поддержки молодежи и бизнеса определены конкретные задачи. В частности, в рамках «Олимпиады пяти инициатив» в системе махалли, образовательных учреждений, предприятий организуются конкурсы на знание иностранных языков («Ибрат фарзандлари»). Проект позволит одному миллиону детей изучать иностранные языки на безвозмездной основе. Для репетиторов иностранных языков и учебных центров предоставляются в безвозмездную аренду

из каждой махалли», в рамках которого лидеры молодежи выявляют юношей и девушек, интересующихся информационными технологиями, организуют их обучение. Сведения о получивших сертификаты вносятся в информационную систему Министерства содействия в трудоустройстве.

Важное значение имеет внедрение в 2024 году системы Президентских и специализированных школ по оценке знаний дополнительно в 1000 общих средних образовательных учреждениях, увеличение доли практических занятий по предметам до 60 процентов. Новшество позволит существенно повысить уровень не только теоретических знаний, но и профессиональных практических навыков. Также предусмотрено покрытие расходов на экзамены 6 тысяч молодых людей, набравших высокие баллы по иностранным языкам в

международных экзаменационных системах.

До 2030 года запланировано создание порядка 700 наименований новых учебников, методических пособий, мобильных приложений для педагогов, а также привлечение в образовательные организации ежегодно 500 зарубежных специалистов – носителей языка.

В получении молодежью качественного образования огромная роль педагогов. Статья 52 новой редакции Конституции Узбекистана определяет: «Труд учителя признается основой развития общества и государства, формирования и воспитания здорового, гармонично развитого поколения, сохранения и приумножения духовного и культурного потенциала народа». В этом плане значимым событием стало принятие Закона «О статусе педагога».

В центре внимания государства вопросы развития науки, поддержки одаренных специалистов, повышения статуса ученых в обществе. Следует отметить, что в настоящее время из более чем 30 тысяч соискателей, занимающихся наукой, свыше половины составляет молодежь. Реализуются меры по созданию современной инфраструктуры для инновационной деятельности, ин-

теграции науки и производства. В частности, до 2025 года запланировано увеличение доли средств, направляемых в сферу науки, в валовом внутреннем продукте в 6 раз, а до 2030 года – в 10 раз.

В условиях глобальной трансформации важное значение приобретает вопрос сохранения духовно-нравственных ценностей и формирования в обществе иммунитета к негативным влияниям деструктивных идей и чуждых нашему народу взглядов. В связи с этим в республике реализуется комплекс мер по поддержке и развитию духовно-просветительской сферы. В частности, под руководством главы государства осуществляет деятельность Республиканский совет по духовности и просветительству, создан Целевой фонд по поддержке сферы духовности и творчества, Институт социально-духовных исследований, расширена деятельность Республиканского центра духовности и просветительства. Только за последние годы созданы 11 новых музеев, 2 театра, 28 детских школ музыки и искусства, 5 высших учебных заведений. В стране действуют Республиканский центр искусства бахши, Фонд развития искусства бахши.

Неуклонно растет объем финансирования сферы культуры и искусства, в 2023 году на эти цели направлены средства в размере свыше 712 миллиардов сумов.

Сферы науки, образования, нравственного воспитания и духовности являются стратегически важными для любого государства. Еще древние мыслители обосновали неразрывность мудрости и блага, познания и добродетели, значение этого единства для прочности социального порядка, процветания общества.

Людмила ЮГАЙ,
доктор юридических наук,
подполковник.





RUHIY BARQARORLIK MUHIM

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolarning xavfsizligi, yurt tinchligi va barqarorligini ta'minlashda birinchi navbatda o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Buning uchun nafaqat yuridik jihatdan bilimdon, balki mustahkam iroda sohibi bo'lish ham taqozo etiladi.

Iroda kishining oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati, xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'zini o'zi boshqarishidir. Shu ma'noda iroda to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo'naltirilgan ruhiy faollikdir. Bu xususiyat maqsadga intilishda namoyon bo'ladi.

- **Sodda til bilan aytganda, iroda-li shaxs qiyin, murakkab vaziyatlarda o'zini qo'lga oladi, nazorat qiladi. Iroda o'zaro bog'liq ikki vazifaning bajarilishini ta'minlaydi. Birinchisi – undovchi, ikkinchisi – taqiqlovchi vazifa.**

Undovchi vazifa kishining faolligi bilan ta'minlanadi. Taqiqlovchi vazifa faollikning yoqimsiz ko'rinishlarini jilovlashda namoyon bo'ladi. Ichki ishlar organlari xodimlarida irodaviy fazilatlarini rivojlantirish ularning faoliyati samaradorligini



ta'minlovchi psixologik omillardan sanaladi. Soha vakillari o'z xizmat faoliyatlarida turli to'siqlarga duch kelishadi. Bunday vaziyatlarda ular ushbu qiyinchiliklar va to'siqlarni yengishga undovchi irodaviy fazilatlarini namoyon qilishlari muhimdir.

Kishi irodasini mustaqil ravishda tarbiyalab borishi lozim. Buni arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishdan boshlash kerak. Xodim qabul qilgan qarorini bajarishga odatlanishi darkor. Shuningdek, irodani toblashda maqsadga erishish bosqichlarini ko'ra olish ham juda katta ahamiyatga ega.

Xodimning kasbiy faoliyatida hissiy-irodaviy holatlarning o'rni beqiyosdir. Chunki ularning murakkab vaziyatlarda o'zi uchun qulay ruhiy holatini saqlash

qobiliyati xizmat faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi.

Shu nuqtayi nazardan xodim faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan o'z xatti-harakatlarini boshqara olishi, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila bilishiga bog'liq. Shuningdek, uning o'zini irodaviy boshqara olishi, murakkab vaziyatlarda tezkor, oqilona qarorlar qabul qilishi kasbiy qobiliyati bilan belgilanadi. Ya'ni xodim irodasi yordamida salbiy hissiyotlarini yo'q qilishi, diqqatini bir joyga jamlashi va butun kuchini zimmasidagi vazifani bajarishga safarbar etishi lozim bo'ladi.

Xodim o'zining psixologik holati va xatti-harakatlarini boshqara olmasa, bu aksariyat hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aksincha, kuchli irodaga ega bo'lgan, o'z hissiyotlarini boshqara oladigan, o'zining jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga qodir xodim ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

Shu ma'noda hissiy-irodaviy boshqarishning asosiy maqsadi ham xodimning o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishiga, kasbiy xislatlari va qobiliyatlari namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida psixologik xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri xodimlarni psixologik jihatdan tayyorlashdir. Bundan ko'zlangan maqsad soha vakillarida xizmat faoliyatining har qanday murakkab

sharoitlarida ham kasbiy jihatdan to'g'ri, aniq, yuqori ishchanlik bilan harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini kasbiy-psixologik tayyorgarliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shaxsiy tarkibning kasbiy mahorati nafaqat maxsus yuridik bilimlardan, balki kasbiy-psixologik tayyorgarlikdan ham tashkil topadi. Shu munosabat bilan ularning kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlashda, professional jihatdan kerakli bo'lgan xislatlarini rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi.

Laziz AKRAMOV,
IIV huzuridagi JIED

Oltinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi, mayor.



Har qanday sohada faoliyat samaradorligini ta'minlashda jamoadagi muhit, ishchi-xodimlarning ruhiy barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Shu bois Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlarida ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, shaxsiy tarkibning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, favqulodda holatlarning oldini olish yuzasidan profilaktik o'quv mashg'ulotlari, seminar-trening va davra suhbatlari olib borilmoqda. Xodimlarning yashash sharoiti va oilasidagi muhitni tizimli o'rganish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarida psixologik savodxonlikni oshirish yuzasidan viloyat IIBda psixologik ta'minlash guruhi tomonidan «Xotira psixologiyasi va uning kasbda tutgan o'rni» mavzusida mashg'ulotlar tashkil qilinmoqda. Shaxsiy tarkib, rahbar xodimlar va Guliston davlat universiteti o'qituvchilari ishtirokidagi mazkur tadbirlarda trening mashg'ulotlari ham o'tkazilyapti. Bundan tashqari, viloyat ichki ishlar organlaridagi ayol xodimlar o'rtasida «Stressni boshqarish» nomli o'quv mashg'ulotlari, seminar-treninglar tashkil etildi. Qolaversa, tabel quroli bilan xizmat olib boruvchi har bir xodim bilan yakka tartibda psixologik suhbat o'tkazilib, viloyat ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari xodimlardan quroldan foydalanish bo'yicha psixologik testlar olindi.

Ayni paytda xizmatga yangi qabul qilingan yosh xodimlar ishtirokida psixologik treninglar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinyapti. Ular bilan suhbatlashib, psixologik tavsiyalar, maslahatlar berilmoqda. Bularning barchasi xizmat samaradorligini oshirish, xodimlar o'rtasida ruhiy tushkunlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zebiniso ABDUG'ANIYEVA,
katta serjant.

Sirdaryo viloyati.

IIV AKADEMIK LITSEYLARI HAYOTIDAN



DUNYOGA OCHILGAN DARCHA

IIV Andijon akademik litseyi geografiya fani o'qituvchisi Matlubaxon Azimova fidoyi o'qituvchilardan biri sifatida e'zozlanadi. Albatta, bu bejiz emas...

– Litseyda o'qituvchi bo'lib ishlagan ilk oylarni katta minnatdorlik bilan eslayman, – deydi Matlubaxon. – Meni – yangi ish boshlagan o'qituvchini litseyda iliq kutib olishdi, qo'llab-quvvatlashdi. Ayniqsa, direktor o'rinbosari Dilmurod Xo'jambardiyev, o'quv bo'limi mudiri Iqboljon Sayfutdinov, o'qituvchilar Oxunjon Sodiqov, Gulzira Mamitova, Malohat Qodirova, Namunaxon Xo'jamovaning yordami katta bo'lgan.

Ko'p o'tmay yosh o'qituvchiga sinf rahbarligi ishonib topshirildi. Matlubaxon shu zahotiy o'quv jarayoniga sho'ng'idi. Uning tarbiyalanuvchi va bitiruvchilari orasida viloyat va hududiy olimpiadalar sovrindorlari va g'oliblari ko'p. Biz buning siri bilan qiziqdik.

– Hech qanday siri yo'q. Olimpiadalariga tayyorgarlik, avvalo, katta mehnat degani. Bu o'qituvchi va o'quvchining bir jamoa bo'lib harakat qilishidir, – deydi M. Azimova. – Fikrimcha, bunda natija emas, balki maqsad sari qo'yilgan qadam muhim. Bolalar bilan hamkorlik muhitida ishlash va birgalikda murakkab vazifani hal qilish uchun kurashib, natijaga erishishning gashti o'zgacha. Tahsil oluvchilar bilan bir to'liqida bo'lish, ular bilan birga o'rganish, rivojlanish, zamonaviy bo'lib qolish – ishimning eng yaxshi tarafidir...

Matlubaxon Azimova litsey qoshida geografiya to'garagini olib boradi, shuningdek, o'quvchilarni IIV Akademiyasiga o'qishga kirishga tayyorlaydi.

U Islombek Odiljonov, Oyjamol Abdulkarimova, Muhammadyusup Komilov, Kamronbek Odiljonov kabi iqtidorli shogirdlari haqida gapirishni yaxshi ko'radi.

– Geografiya kasbga yo'naltiruvchi fan bo'lmasa-da, lekin juda qiziqarli va foydali. O'quvchilar bilan birga uzoq mamlakatlarga xayolan sayohat qilamiz, u yerda odamlar qanday yashashi, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini bilan tanishamiz. Bir so'z bilan aytganda, geografiya – dunyo tomon ochilgan darcha, – deydi suhbat so'ngida qahramonimiz.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

ILMIY SALOHİYAT – ASOSIY OMIL

Ichki ishlar vazirligiga qarashli Qoraqalpog' akademik litseyi yurtimizda ichki ishlar va harbiy sohalarga munosib nomzodlar tayyorlash, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik hamda kasbga sodiqlik ruhida tarbiyalashda munosib hissa qo'shib kelayotgan bilim dargohlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu ta'lim muassasasi tashkil etilganidan buyon 1200 ga yaqin o'quvchilar tugatib, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lsa, ayrimlari ichki ishlar hamda boshqa sohalarda xizmat qilmoqda.

Akademik litsey o'quv binosi 2022-yilda kapital ta'mirdan chiqarilib, hozirda zamonga mos ravishda jihozlangan o'quv xonalari, oshxona, yotoqxona, sport zali, 200 nafar o'quvchiga mo'ljallangan katta majlislar zali, Axborot-resurs markazi, 2 ta kompyuter xonasi, 3 ta laboratoriya xonalari mavjud.

Ta'kidlash joizki, bu yerda huquqshunoslik, tarix, ingliz tili fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida 8 ta fan, 3 ta havaskorlik, 4 ta sport to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Muassasa to'liq optik tolali yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulangan bo'lib, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida 20 dan ortiq videokuzatuv moslamalari o'rnatilgan.

– O'tgan o'quv yilida akademik litseyini 23 nafar qiz, 179 nafar o'g'il bolalar tamomladi. Ularning deyarli 82 foizi oliy

fani o'qituvchilarining barchasi C1 darajasidagi sertifikatlariga ega bo'lib, ularning 4 nafari PhD ilmiy darajasini olish uchun tadqiqot ishlarini olib bormoqda.



ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi. Xususan, 25 nafari IIV Akademiyasiga, 11 nafari harbiy, 129 nafari fuqarolik oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga muvaffaq bo'lishdi. Albatta, bu ko'rsatkichning o'zi pedagogik jamoamiz mehnatining qanchalik samara berayotganini anglatadi.

Bunday natijalarni qo'lga kiritishda pedagoglarimizning ilmiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'qituvchilarimizning malakasini hamda ilmiy darajasini oshirib borishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Hozirda litseyimizdagi ingliz tili

Shuningdek, yaqinda biologiya fani o'qituvchisi Janabay Tilepov, rus tili fani o'qituvchisi Roza Yazaliyeva IIV akademik litseylari o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritishdi, – deydi litsey direktori, podpolkovnik Uchqun Qadirov.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida IIV Qoraqalpog' akademik litseyi bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi va Ajiniyoz nomidagi Nukus pedagogika instituti o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi asosida

o'zaro tajriba almashish, seminar-trening va «mahorat darslari» hamda ma'naviyat-ma'rifiy tadbirlarni birgalikda o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi bilan o'zaro hamkorlik rejasi tuzilib, ijroga qaratilgan. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2022-yil 20-yanvardagi «Zakovat» intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va bosh-

qa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan intellektual o'yinning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida akademik litseyning «Kursantlar» jamoasi o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Natijada faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritib, o'tgan yil oktabr oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan respublika bosqichida faol ishtirok etishdi.

– Litseyimizda yaratilgan qulayliklar natijasi o'laroq, o'tgan yil sentabr oyida o'quvchilarmizdan Sevinch Rustamova va Husniddin Rahmonov «O'qishdagi muvaffaqiyatlari uchun» ko'krak nishoni, Amir Askarov va Gulshad Izbergenovalar Ichki ishlar vaziri stipendiyasi bilan taqdirlandi, – deydi litsey o'quv bo'limi boshlig'i Hakim Eshmuratov. – Oktabr oyida esa litseyning o'quv bo'limi metodisti Quralay Bazarbayeva «Ibratli ayol» esdalik nishoniga, 205-guruh o'quvchisi Sevinch Rustamova o'qishda erishgan yutuqlari uchun «Umid uchquni» ko'krak nishoniga munosib topildi. Shu kunga qadar o'quvchilarimizning 28 nafari B2, 16 nafari B1 va 27 nafari IT yo'nalishi bo'yicha sertifikatlarni olishga muvaffaq bo'lishdi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.



★ Аспект профилактики

Службу в органах внутренних дел он начал в 2017 году, после окончания Самаркандского института экономики и сервиса. За период своей деятельности старший лейтенант набрался опыта и зарекомендовал себя как грамотный сотрудник, которому небезразлична судьба человека.

С 2023 года старший лейтенант Б. Урикбоев следит за порядком густонаселенного массива «Корасув», известного в городе своими высотками. Несмотря на то, что территория для инспектора новая, за год службы он успел наладить доверительные отношения с жильцами, у него под контролем весь проблемный контингент.

Основная забота инспектора – укрепление правопорядка. Его утро начинается с приема заявлений. Личные приемы граждан и работа с документами – лишь часть каждодневных дел. Кроме этого, он проверяет сигналы, улаживает бытовые конфликты. В целом, территория относительно спокойная, но работы все же немало: шумные

ВАЖНО ДОВЕРИЕ

Вызовы в вечернее и ночное время, рассмотрение заявлений, звонки от жителей вверенной территории – все это служебные будни инспекторов профилактики. Сегодня мы хотим рассказать о работе инспектора профилактики нового жилого массива «Корасув» Самарканда старшего лейтенанта Бобура Урикбоева.



соседи, буйные мужья, «беспокойные» квартиры. К старшему лейтенанту обращаются за помощью люди.

– Заявлений здесь достаточно, в отличие от сельской местности в городских многоэтажных высотках проблем больше,

– говорит наш собеседник. – При выборе профессии понимал, что будут сложности, но был к ним готов. Мне важно доверие лю-

дей. Если оно есть, тогда жители к тебе пойдут с любыми вопросами.

Инспекторов профилактики называют психологами: ведь нередко, чтобы предупредить беду, им приходится действовать на опережение. К примеру, чтобы тот же безработный не пошел на кражу.

– Ко мне обратилась женщина, она одна воспитывает детей и жаловалась на материальные сложности, – продолжает диалог старший лейтенант. – Пообщавшись с представителями махалли, мы предложили ей помощь. Сейчас женщина занимается швейным делом, зарабатывает. Дети находятся под присмотром. Радует, когда можешь помочь и советом, и делом. В этом случае понимаешь, что выбрал верный путь.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.
Самаркандская область.

★ Служба пробации

ВСТАТЬ НА ПРАВИЛЬНЫЙ ПУТЬ

Жизненные ситуации многообразны... Важно, чтобы раз оступившийся человек осознал свою вину, встал на правильный путь.

Это хорошо известно старшему инспектору группы пробации СОБ Мингбулакского РОВД капитану Аброру Тошпулатову. По долгу службы ему ежедневно приходится сталкиваться с людьми, имеющими проблемы с законом, помогать им найти себя, обрести доверие окружающих, стать добропорядочными гражданами.

Аброр Тошпулатов детально изучает биографию каждого поднадзорного. Получив предварительное представление, направляется по адресам.

А. А., проживающий в махалле Мустакиллик, Наманганским областным судом по уголовным делам приговорен к исправительным работам сроком на два года. В беседе с ним инспектор определил круг задач, заверил, что поможет начать жизнь с чистого листа.

Мингбулакским районным судом по уголовным делам Д. Д. был приговорен к ограничению свободы на 2 года и 3 месяца. С ним старший инспектор также обстоятельно поговорил.



Обойдя подопечных, капитан А. Тошпулатов связался с центром занятости и сокращения бедности Мингбулакского района, узнал о вакансиях. В итоге А. А. будет принят на работу в ООО «Риадиш», а Д. Д. – на предприятие «Артсофт».

Тесный контакт с организациями-партнерами позволяет группе пробации эффективно решать вопросы, связанные с лицами, взятыми на учет. К примеру, 52 из них были трудоустроены в ходе ярмарки свободных рабочих мест, еще четверо, не имеющих специальности, направлены в моноцентр для получения профессии.

– На учете у нас 264 человека, 109, твердо вставших на путь исправления, по представлению начальника РОВД были условно-досрочно освобождены в ходе выездных судебных заседаний, – говорит Аброр Тошпулатов. – 17 лицам, умышленно уклонявшимся от выполнения установленных требований, наказание заменено на более суровое.

Гулчехра БУВАМИРЗАЕВА,
соб. корр.

Наманганская область.

INSON QADRI UCHUN

ODAMLAR ROZILIGI YO'LIDA



Nurafshon shahar IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasida fuqarolar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Xodimlarga murojaat qilmoqchi bo'lgan kishi elektron raqam olib, tabloda navbati kelishini kuzatib turadi. Xodimlar yorug' va qulay xonalarda xushmuomalalik bilan fuqarolarga xizmat ko'rsatishadi.

dan ziyod davlat xizmatlarini samarali amalga oshirdi. Jumladan, fuqaroligi yo'q 44 nafar shaxsga ID-kartalar rasmiylashtirildi.

O'z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.

E'tiborlisi, 2021-yildan bugungi kunga qadar bo'linma jamoasi 20 mingdan ortiq fuqarolarga yigirma-

Suratlarda: Nurafshon shahar IIB M va FRB xodimlari xizmat faoliyatidan lavhalar.



PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATIDAN

OILA MUSTAHKAM, TINCH BO'LSA...

Asli Xatirchi tumani-da tug'ilib voyaga yetgan Azim Shodiyev o'quvchilik davridayoq huquqiy mavzuda maqolalar yoza boshladi. Keyinroq bilimlarini Navoiy davlat pedagogika instituti tarix-huquq yo'nalishida o'qib, yanada boyitdi. U mana to'rt yildirki, Karmana tumani «Varq» mahallasida profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilmoqda.

Mazkur mahallada o'zbek, tojik, rus va tatar millat vakillari ahil-inoq yashashadi. Hududning osoyishtaligiga mas'ul katta leytenant Azim Shodiyev kunning qaysi vaqtida bo'lmasin, mahalla ahlining muammolarini hal etishdan, og'irini yengil qilishdan erinmaydi.

– Oila mustahkam, tinch bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, farovon bo'ladi. Shu bois oilalar tinchligiga alohida e'tibor qaratamiz. Avvalo nizo chiqqan oilaning tur-



mush sharoitini, ijtimoiy ahvolini o'rganamiz, ishsiz oila a'zolari bandligini ta'minlaymiz, – deydi katta leytenant Azim Shodiyev.

Mahallaning Birdamlik ko'chasida joylashgan 187-uyning peshoqida Vatanimizning Davlat bay-

rog'i hilpirab turadi. Boisi, bu xonadonda lavhamiz qahramoni istiqomat qiladi.

– Azimjon erta-yu kech mahallamiz ahlining tashvishi bilan yashaydi. U farzandlarimiz, nabiralarimizni to'g'ri yo'lga boshlash borasida jon kuydiradi. Inspektorimizning

xizmatidan ko'nglimiz to'q. Har doim uning haqiga dudamiz, – deydi mahallaning piri badavlat nuroniylaridan Axtam bobo Sultonov.

– O'tgan yili birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz natijasida huquqbuzarliklar nisbatan kamaydi. Hududda jinoiy

holatlarni keskin kamaytirish uchun uning tub ildizi, sabablarini mahalla ahli bilan birga tahlil etyapmiz, – deydi katta leytenant A. Shodiyev.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.



2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

CHO‘QQINI KO‘ZLAGAN ISHBILARMON

Madat Hotamovning bolaligi qiyinchilik bilan o‘tgan. Yetti yoshida otasi Fatullo aka kasallikka chalinib, vafot etgan. Onasi Salima aya sakkiz farzand bilan beva qoladi. Akasi va opasi bilan onasiga qo‘l-qanot bo‘lib suyagi mehnatda qotdi. Lekin o‘qishni ham tashlab qo‘ymadi. Tunlarda darslarini tayyorlab, kitobdan bosh ko‘tarmasdi.

Buxoro texnologiya institutining kechki yo‘nalishida o‘qib, kunduz kunlari viloyat ipakchilik boshqarmasining avtokorxonasida duradgor usta bo‘lib ishga joylashgan M. Hotamov muddatli harbiy xizmatga chaqiriladi.

Harbiy xizmatdan qaytgach Buxoro shahridagi 20-sonli bilim yurtida ishlab chiqarish bo‘yicha usta sifatida ish boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, uchastka noziriga shtatsiz yordamchilik qiladi. Uchastka nozirining tavsiyasi bilan viloyat IIBga qarashli voyaga yetmaganlarni qabul qilish va tarqatish muassasasida profilaktika inspektorligiga qabul qilindi. Keyinchalik Buxoro shahar IIBda tezkor vakil, katta tezkor vakil lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Bu orada Samarqand davlat universiteti huquqshunoslik fakultetining sirtqi bo‘limida tahsil olishga ham ulgurdi.

2003-yildan boshlab viloyat IIBda katta tezkor vakil, jinoyat qidiruv bo‘limi boshlig‘i, uyush-

gan jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘limi hamda bosqinchilik, talonchilik va mulkiy turdagi jinoyatlarga qarshi kurash bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida samarali faoliyat ko‘rsatib, 2009-yili mayor unvoni bilan pensiyaga chiqdi.

Hikoyamiz qahramoni qarddon do‘sti va kursdoshi iste‘fodagi mayor Baxtiyor Saidov hamda iste‘fodagi podpolkovnik Ilyos Qosimov bilan «Shinam Uy Qurilish» mas‘uliyati cheklangan jamiyatini ochishdi. Jamiyatning asosiy faoliyati ko‘p qavatli uylarni barpo etish edi. Shu maqsadda davlatdan 700 million so‘m imtiyozli kredit olishdi. Buxoro shahrida birinchilardan bo‘lib ko‘p qavatli uylar qurishni boshlashdi. Uylarning birinchi va ikkinchi qavatlarini tadbirkorlarga savdo hamda maishiy xizmat ko‘rsatish uchun berilardi. 2012-yili birinchi 5 qavatli uyni



aholiga topshirishdi. Shu uyni o‘zida o‘nga yaqin oilalar ish bilan band bo‘lishdi. 2016-yili 7 qavatli 3 ta uyni tiklashdi. Yana 60 tadan ortiq ish joylari yaratildi. 2017–2021-yillarda shaharning Zulfiya ko‘chasidagi tashlandiq joylarni obodonlashtirib, 150 xonadonga mo‘ljallangan ko‘p qavatli turarjoy barpo etishdi. Ushbu xonadonlarning 60 foizi subsidiya asosida kam ta‘minlangan oilalarga berildi.

– Rosti, bu yerni obod qilishning o‘zi bo‘lmadi, – deydi Madat aka navbatdagi bunyodkorlik ishi xususida to‘xtalib. – Davlatdan 2 milliard so‘m imtiyozli kredit oldik. Qisqa fursatda, avtoulavlarga yoqilg‘i quyish, siqilgan gaz quyish, avtosalon, turli texnik xizmat ko‘rsatish va kafe kompleksini bitkazib ishga tushirganmiz. Ayni paytda yigirmadan ortiq ishchi ishlayapti. Kelgusida «Lukoil» kompaniyasi bilan hamkorlikda qo‘shma korxonani ochish uchun muzokaralar olib borilmoqda. Yana Koreya davlati bilan qo‘shma korxonani ochish niyatimiz bor. Bu korxonada 8 turdagi «Indrigent»

mahsulotlari ishlab chiqarish mumkin. Natijada yana ellikdan ortiq ish o‘rinlari yaratiladi.

Qisqasi, cho‘qqini ko‘zlayotgan tadbirkor Madat Hotamovning ishlariga qoyil qolmay iloj yo‘q. Uning bugungi faoliyati bilan tanishgan kishi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlar, albatta, ro‘yobga chiqishiga to‘la ishonch hosil qiladi.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

UNING HAM HISSASI BOR

Leytenant Ziyovuddin Buvabekov ilk faoliyatini Yashnobod tumanidagi «Iltifot» mahallasida profilaktika inspektori sifatida boshlagan. Unga dastlab profilaktika katta inspektori, mayor Najmiddin Gulyamov soha sir-asrorlarini o‘rgatdi.

Z. Buvabekov Amir Temur nomli mahallaga o‘tkazilgach, 299-sonli ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Bahodir G‘afurov bilan hamrohlikda xizmatini davom ettirmoqda.

Har bir kasbda ustoz bo‘lmasa, shogird o‘z yo‘lini topib olishi mushkul. Shu bois ham umidli leytenant hamkasbi va murabbiyining yo‘l-yo‘riqlari va o‘g‘itlarini olib, mahalla tinchligi hamda osoyishtaligini ta‘minlashda sa‘y-harakatlar olib bormoqda.

Podpolkovnik B. G‘ofurov har gal shogirdiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatarkan, otalarcha nasihat qilishni kanda qilmaydi: «Sen o‘z kasbingni yaxshi ko‘rgin, shunda qiyinchiliklari bilinmaydi. Bilmaganingni o‘rganib olishdan orlanma. O‘zingdan bir kun oldin kelgan bo‘lsa-da, sohada faoliyat yuritayotgan har bir xodim, senga ustoz hisoblanadi. Halol bo‘lib, to‘g‘ri qadam



tashlasang, martabang oshib boraveradi. Eng asosiysi, oldingga murojaat bilan kelgan har bir fuqaroga xushmuomala bo‘lib, uni diqqat bilan tingla, so‘ngra uning muammolarini hal qilishga kirish».

Hayotiy o‘g‘itlarni ongu shuuriga singdirgan yosh xodim mahallada istiqomat qilayotgan

3700 dan ortiq aholining tinchligi va xotirjamligi uchun sidqidildan xizmat qilishga bel bog‘lagan.

Leytenant Z. Buvabekov ustoz bilan birgalikda o‘tgan yilda bir nechta jinoyatni ochishga muvaffaq bo‘ldi. Shuningdek, 365 ta huquqbuzarlikni aniqlab, ma‘muriy bayonnomalar rasmiylashtirgan. Muqaddam sudlanib, o‘ziga ijobiy xulosa chiqarmagan bir nafar shaxsga ma‘muriy nazorat o‘rnatib, u bilan profilaktik suhbatlar olib boradi. Profilaktik hisobdagi shaxslar, xususan, spirtli ichimlik ichishga ruju qo‘ygan, giyohvandlik balosiga muhtalo bo‘lgan hamda ruhiy-asab kasalliklari dispanseri hisobida turuvchi fuqarolarni majburiy davolanish uchun tegishli muassasalarga joylashtirish ishlarini olib borgan. Bundan tashqari, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan muntazam ravishda profilaktik tadbirlar tashkil qilib kelmoqda.

Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Erkin Umarov boshchiligida «mahalla yettiligi» bilan olib borilgan chora-tadbirlar o‘z natijasini berib, hudud «sariq» toifaga kiritilgan. Albatta, bu sa‘y-harakatlarda tirishqoq va intiluvchan leytenant Ziyovuddin Buvabekovning ham munosib hissasi bor.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

■ Навоийская область

МОБИЛЬНАЯ ГРУППА В ДЕЙСТВИИ

Предупреждение противоправных деяний, изучение обращений граждан, своевременное реагирование на их запросы – задача действующих в махаллях мобильных групп специалистов.



Очередное профилактическое мероприятие с населением проведено Кызылтепинском районе. Предварительно было проведено установочное собрание для мобиль-

ной группы в составе сотрудников органов внутренних дел, патронажных медицинских сестер медобъединения, активистов махаллей, а также ответственных за пожарную безопасность.

Затем группа выехала в отдаленную махаллю Навкирон, где проживают более 2,5 тыс. человек. Она входит в число неблагополучных в криминальном отношении. В



природным газом и электричеством провели техосмотр приборов учета голубого топлива и электроэнергии.

Особое внимание обращено на семьи с нездоровой нравственной обстановкой. С ними проведена разъяснительная работа.

Члены группы побывали в домах 59-летнего жителя махалли Фахриддина Жураева и инвалида 1-й группы Нафисахон Буриевой. Они обратились с просьбой помочь в решении социально-бытовых проблем и посодействовать лечению. Фахриддин Жураев попросил трудоустроить сына – единственного кормильца семьи.

Мероприятие дало возможность на месте решить ряд проблем населения, дать правовые консультации, помочь с устранением имеющихся недостатков.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.

ходе подворового обхода проведены беседы, изучены социальные проблемы граждан. Специалисты предприятий снабжения

■ Сурхандарьинская область

ЗАБОТА О ЛЮДЯХ

В махалле Яккатол Музрабатского района состоялся выездной профилактический медосмотр населения.

Углубленное обследование жителей организовали Медицинский отдел УВД и Управление здравоохранения области.

Всего проверено самочувствие 455 граждан. 86 больных лиц осмотрены специалистами узкого профиля, они

получили необходимые консультации. Более 150 обследованным рекомендовано пролечиться амбулаторно, ряду лиц – в стационарном порядке в медучреждениях областного Управления здравоохранения.

Соб. корр.



SIZ KUTGAN UCHRASHUV

«MASHHURLIK BOZORLARDA SOTILMAS EKAN»

«Men olis bir qishloqdagi hunarmand ustaning farzandiman. San'atga bo'lgan muhabbatim tufayli ibratxona atalmish muqaddas teatr sahnasida so'z aytish nasib qildi. Taqdirimdan roziman. Buni ota-onamning bolalikdan qalbmida mehnatga muhabbat uyg'otib, nonni katta tishlasangiz ham, o'g'lim, tilingizga erk bermang, xijolatda yonmang, kamtarlik, kamsuqumlikni odat qiling, deya bergan chiroyli tarbiyasi sharofatidan, deb bilaman».

Mana shunday teran fikrlari va samimiy ijrolari bilan san'atsevar xalqimiz mehrini qozongan, ularning yuzida kulgu, eng muhimi, san'at olamida o'z so'zini ayta olgan serqirra ijodkor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tolib Hojiyev bugungi suhbatdoshimiz.

– Suhbatimizni san'at olamiga qo'ygan ilk qadamlaringiz va Sizni elga tanitgan aka Sharifning «tug'ili» bilan boshlasak.

– Aktyorlikka ilk qiziqishim ustoz Ergash Karimovning chiqishlarini ko'rib uyg'ongan. O'shanda hali maktabga ham chiqmagan bola edim. «Ekran xandasi» va «Teleminiatyuralar teatri»da O'zbekiston xalq artisti Ergash Karimov, Hasan Yo'ldoshev, Sadir Ziyoviddinovlarning ijrosini butun vujudim bilan tomosha qilganimdan, ularning so'zlarini yod olib, aytib yurardim. Taqdir nasib qilgan ekan, keyinchalik ustoz-shogird, hamfikir, hammaslak bo'ldik.

Mashhurlik bozorlarda sotilmas ekan. San'at maydonida inson astoydil g'ayrat qilib, chin dildan yonib, yurakdan ishlasa, albatta, qismat uning omad otini yorug', ravon yo'lga boshlar ekan.

Hayotiy kuzatishlarim asosida «Sharif va Marif» senariysini yozganman. Dramaturg Sharof Boshbekov bilan birgalikda kinoasarni pishitganmiz. Aslida bu kinofilmi qismat yo'llarimdagi boshqacha bir omad, deb atagan bo'lardim. Chunki aka Sharif obrazi ijodimning cho'qqisi bo'ldi, san'at yo'lidagi izlanishlarim shu rolim orqali yuzaga chiqdi. O'zbekistonda birinchi bo'lib xususiy kinostudiyaga, ya'ni «Sharif va Marif»ga asos soldik. Kinofilmda shunchaki o'tkazib yuboriladigan sahnaning o'zi yo'q. Har bir qahramonning aytar so'zida salmoq, ma'no, maqsad, millatning samimiyati, yutug'i, kamchiligi bor. Shu tufayli ham xalqimizning yuragidan joy oldi, deb o'ylayman.

– Sizning g'oyangiz asosida tasvirga olingan «Mergan melisa» filmida bosh qahramon – profilaktika inspektori Mergan rolini ijro etgansiz. Shu to'g'risida ham gapirib bersangiz.

– Ichki ishlar organlarida uzoq yillar samarali xizmat qilgan, polkovnik O'tkir Jo'rayev bilan qadrdon edik. Ular bilan o'zaro suhbatlashib o'tirganimizda, «Aka Sharif uchastkavoy» degan film qilaylik, dedim. Ular «Tolib aka, yozing, vazirlik rahbariyatga olib kiramiz», deya taklifimni qo'llab-quvatladilar. Biz «Aka Sharif uchastkavoy» deb yozdik, keyin u «Mergan melisa»ga aylanib ketdi. Shu film bo'yicha o'sha vaqtda Ichki ishlar vaziri bo'lgan Zokir Almatov bilan suhbatlashganimda, ulardagi kasbiy salohiyat naqadar boy-

ligini anglab, «sohaning odami» degan jumlaning mag'zini chaqqanim, yangi asarni yaratish uchun kuchli ishtiyoq, juda katta ruhiy quvvat olib chiqqanim kechagidek esimda.

Kinoni tasvirga olish jarayonlari



Namangan viloyatida bo'lib o'tgan. O'sha paytda Namangan viloyati IIB boshlig'i bo'lgan general-mayor Ahmadjon Usmonov rahbarligidagi ichki ishlar organlari xodimlari bizdan yordamlarini ayamagan. Va el osoyishtaligi uchun jon-u dili bilan xizmat qilayotgan ahdiga sadoqatli yurt o'g'lonlarining hayotini ekranga olib chiqishga muvaffaq bo'lganmiz.

– Sizning kitobni benazir xazina sifatida qadrlovchi kitobxon, ayniqsa, badiiy adabiyotga ixlosi baland san'atkorlardan biri ekanligingizni yaxshi bilamiz. Bugun jamiyatimizga yangi to'lqin bo'lib qo'shilayotgan yoshlarga mutolaa borasida qanday maslahatlar berasiz?

– Kitob ilm degani. Uni o'qib, mag'zini chaqish ilm olish demakdir. Ilmsizlik esa fojia. Bugun kitobxonlikka Yurtboshimiz bejiz alohida e'tibor qaratmayaptilar. Mana, men Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibotchilaridan biriman. Respublikamiz bo'ylab ma'naviy tadbirlarda ishtirok etamiz. O'zim guvohiman, biz tadbirga boramiz, ortimizdan katta-katta mashinalarda kitoblar xazinasini yetib boradi. O'qinglar, deya ularni yurtdoshlarimizga, yoshlarga beramiz. Lekin bugun oramizda hamma yoqda internet, kitobni kerak odam elektron shakldayam o'qiyveradi, deya kitobxonlikka ahamiyat qaratmaydiganlar ham yo'q emas. Kitobga qalban oshno tutinganlar, mutolaani sevadi, o'qiydi. Xalqimizning ma'naviy xazinasiga har



bir so'zi dur bo'lib to'kilgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Tog'ay Murod singari ijodkorlar bor. Ularni o'qish va uqish kerak.

Teatr san'atida bir ibora bor: «Sahnada miltiq osig'liq turgan bo'lsa, u albatta otishi kerak. Bo'lmasa, unga sahna dekoratsiyasida joy yo'q». Nega men bu gaplarni ta'kidladim? Balki biz tarqatgan kitoblarni bugun kimdir o'qir, kimdir o'qimas, elektron nusxani afzal ko'rar. Ammo shu kitoblar minglab xonadonlarga kirdi-ku. Kun kelib, kelgusi avlod shu kitoblarni, albatta, varaqlab, uning olamiga sho'ng'ib ketadi. Ilm urug'ini ekish esa shunday bo'ladi.

– Ustoz san'atkor sifatida san'at sohasiga kirib kelayotgan yoshlardan ko'nglingiz qay darajada to'ladi?



– San'at ahli iste'dodini ilmi bilan boyitmas ekan, maqsadsiz yo'lovchiga aylanib qoladi. Yaqinda bir yosh xonandaning:

«So'yulasin Afrosiyob-u So'yulasin Uyg'un xati», deb kuylayotganiga guvoh bo'ldim.

U Erkin Vohidovni tuzatdimi yo tarixni tuzatdimi, men yig'lavoray, dedim... Mayli, bu qizcha bilmas, uning yonida turganlar-chi, eng achinarlisi, sahnaga chiqishidan oldin ustoz «Uyg'un xati emas, O'rxun xati» deya xatosini tuzatishi mumkin edi-ku...

Bu bilan san'at olamiga kirib kelayotgan yoshlarni kamsitmoqchi emasman. Yoki ularning barchasi shunaqa, deyish fikridan ham yiroqman. Ammo katta davralarda ayrim yoshlarning ilmsizlik, bilimsizlik ortidagi kamchiliklaridan yuragim og'riydi.

– Keling, endi sulola davomchilari haqida gaplashaylik.

– Ota-onam mendagi san'atga ishtiyoqni qanchalik qadrlagan bo'lsa, men ham farzandlarimga shunday tarbiya berdim. Chunki san'atga mehr insonning qalbida bo'lmasa, bu maydonga yetaklab kirsangiz ham, oyoqqa turolmaydi. O'g'illarim G'olibjon, Ergashjon, Tolmasjon, qizim Nargizaxon san'atni, ijodni ixtiyor qildi, omadini bersin, deyman. Ularning kamolini bir men emas, elimiz ko'rsin, deya niyat qilaman.

– Gazetamizning mushtariylari asosan ichki ishlar organlari xodimlari. Hayotingiz davomida ular bilan bog'liq esda qolarli voqealar yuz berganmi?

– Yana «Mergan melisa» filmiga qaytamiz. Chunki undagi barcha sahnalar hayotiy va bevosita ko'rganlarim, kuzatganlarim asosiga qurilgan. Masalan: filmda birrovga oilasidan xabar olishga kelgan Mergan melisaning ayoli «Dadasi, kenjatoyiz kecha ortingizdan uyg'onib, menga qarab, oyi, anavi amaki kim deb so'radi», deydi. Va turmush o'rtog'i «U amakimas, dadang, degin. Hali katta bo'laversin, xudo xohlasa, u bilan tanishib olaveramiz», deya javob qilib, yana xizmatiga ravona bo'ladi. Yoki Mergan melisaga salomni ham nasiya qilgan boynig bolasini bir zum o'tmay, bir zo'ravon kisovurlar egnidagi kiyimini yechib olmoqchi bo'lganida «Militsiya, militsiya», deya baqiradi. Hali uzoqlab ketmagan Mergan aka ortiga qaytib, «Nima bo'ldi?» desa, takasaltuzi yigitcha «Qarang, kupa-kunduzi tunab ketishyapti, yaxshiyam, siz bor ekansiz, jonimga oro kirdiz» deydi. Shunda Mergan melisa «Qo'y, uka, yolg'on-dan yig'lagandek bo'lmagin, sandan boshqalarniyam boshiga musibat tushsa, otajon, onajonmas, militsiya deya baqirasizlar, shuning uchun har doim salom-alikka joy qolsin, uka» deydi.

– Endi bevosita ijodigizdagi yangiliklarga to'xtalsangiz.

– Shukur, bugun ham ijodiy jarayonlarda javlon uryapman. «Kuldurgup», «Yangi kulgi», «Iqror», «Buni hayot deydi-lar»da yangi obrazlar bilan

bandman. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Davlat yoshlar teatrida faoliyat yuritmoqdaman. Yaqinda Sherzod Boymurodov, Erkin Jo'liyev, G'ulom Shovshuv, Ro'zimboy Allanzarov, Laylo qizimizdan iborat ijodiy jamoamiz bilan «Ajab hangomalar» deb nomlangan teatr tomoshasi bilan yurtdoshlarimiz yuz-ko'zlariga tabasum ulashish niyatidamiz.

– Mana, nihoyat, samimiy ti-laklar aytiladigan fursat ham yetib keldi...

– Vatanning tinchligi, osoyishtaligiga soha fidoyilari o'zining jonkuyarligi bilan bugungacha hissa qo'shib kelgan, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Ularga bu sharafli ishda hamisha sabot, iroda, shijoat yo'ldosh bo'lib, yuzlari yorug', yo'llari ravon bo'lsin, deyman.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA suhbatlashdi.

O'QISHNI TAVSIYA QILAMAN

ODAMIYLIK
SABOG'I

Ildan bahramand bo'lish – yaxshi, uni hayotga tatbiq eta olish esa yanada muhim. Sevimli adibimiz O'Imas Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin» asari bosh qahramoni Abdullajon aynan o'qiganlarini tatbiq qilishga kelganda hayotda biroz adashadi va odamiylikni boy berib qo'yadi...


Abdulla chindan ham tirishqoq, samimiy yigit edi. Uning shuhratparast bo'lib qolishiga, amalga intilishiga maktab payti orttirgan ruhiy jarohati sabab bo'ladi. Otasi amal otidan tushgandan so'ng o'qituvchilarning muomalasi o'zgarishi, ayniqsa, otasining do'sti Husan amakining ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butunlay o'zgartirib yuboradi. U bu dunyoda eng zo'ri bo'lsangina seni hurmat qilishadi, senga tavallo etishadi, degan fikrga borgandi.

Asar qahramonining Gulchehraga bo'lgan munosabati ham jiddiy edi, toki Sayyoraga uylanish mavzusi ko'tarilmaguncha. Aynan shu nuqta, ya'ni va'dasiga vafo qilib, Gulchehraga uylangan holda qizni qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta'minlashdan birini tanlash nuq-

tasi Abdullaning hayotidagi katta imtihonlaridan biriga aylanadi. Afsuski, qanchadan-qancha imtihonlarni a'lo baholarga topshirgan, oltin medalli o'quvchi, olimlikka da'vog'ar shaxs Abdulla hayotning, odamiylikning shu sinovida qo'qildi. Hayotda yaxshi talaba bo'la olmadi.

Hamma ham odam bo'lib tug'iladi, lekin har kim ham bu nomga loyiq bo'lishning uddasidan chiqolmaydi. Odamiylik nomli xislat bor. Bu so'z odamga, chin insonga xos xislat sanaladi.

Shuhratparastlik yomon xususiyatlar sirasiga kiradi. Buning sababi shundaki, odamlar ko'pincha shu salbiy xislat sabab ko'plab qabihliklarga, ikkiyuzlamachiliklarga qo'l uradilar. Qanchalab insonlarning baxtsizliklariga, dilxiraliklariga sabab bo'ladilar. Bunga yorqin namuna esa Abdulla timsolida



namoyon bo'ladi. U o'tkinchi obro'-e'tiborga yetishaman deb vijdonini yutqazdi, guldek bir qizning hayotiga zomin bo'ldi. Endi uning olim bo'lishidan biror ma'no bormi?

Inson olim bo'lishdan-da oldin odam bo'lmas ekan, topgan obro'-e'tibori, unvon-u amali bir pul. Asar real voqealarga asoslanib yozilgandek kitobxonni o'ziga jalb etadi. Asarda ota-onaga hurmat, qadr-qimmat, odamiylik tuyg'ulari, yosh qalbning o'y-hislari, o'zbeklarning sodda va mehribonligi, o'smir bolaning orzulari va shunga o'xshash voqealar ibratli tarzda yoritilgan. Asarni mutolaa qilgan o'quvchi ana shunday odamiylik sabog'idan dars oladi.

Fozil XOLMO'MINOV,
Surxondaryo viloyati
IIB huzuridagi Tergov
boshqarmasi O'MIB
tergovchisi, kapitan.

BIR MAQOL TALQINI

«DO'ST BOSHGA,
DUSHMAN
OYOQQA QARAYDI»

Bu maqol kunda-kunora bo'lmasa-da, eng ko'p ishlatiladigan hikmatlardan biri. Biroq uni har kim har xil tushunadi. Kimdir yangi oyoq kiyimingizning kiftini keltirib maqtasa ham, xayolingizda mazkur maqolning mazmuni aylanib, shubha-gumonlar girdobida qolasiz. Yoki bosh kiyimingizga e'tibor qaratgan odamga ehtiromlar ko'rsatganingizni bilmay qolasiz. Axir, maqolda hammasi ochiq-oydin aytib qo'yilgan-da... Lekin hech o'ylab ko'rganmisiz, agar shunday bo'lganda, sartaroshlarning hammasi do'stga, etikdo'zlar esa dushmanga chiqib ketgan bo'lmasmi?..

Oramizda bu maqolni boshqacha talqin qiladiganlar ham bisyor. Ularning fikricha, oyoq kiyimining holati, eski-yangiligi, toza yoki bil'aks ekanligi uning sohibi va oilasi haqida ma'lumot beradi. Maqolning «boshga qaraydi» qismi esa, kishining yuz-ko'zi bilan bog'liq bo'lib, uning kayfiyatini, ruhiy holatini aks ettiradi, deb hisoblashadi.

Aslida bu maqolning zohirida aks etgan ma'nolarga qaraganda, uning mazmun-mohiyati teranroqdir. Bunda «bosh» va «oyoq» so'zlari o'zaro qarshilantirilgan. Ya'ni, bosh faqat insonning bosh qismi emas, balki aql-idrok, fahm-farosat, tafakkur manbayi, oyoq esa uning aksi sifatida qaralgan. Bundan tashqari, oyoq faqat tananing oxirgi qismi bo'lmay, unga butun tashqi ko'rinish ma'nosi yuklangan. Zero, «bosh-oyoq» yoki boshdan-oyoq» deganda, barcha kiyim-kechak tushunilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, «Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi» maqolining mazmuni oydinlashadi. Ya'ni, insonning do'sti uning zohiri – tashqi ko'rinishiga qarab emas, boshi – aqliga qarab baho beradi. Dushman esa – aksincha. Shu o'rinda «dushman» so'ziga ham alohida e'tibor qaratish kerak. Bunda dushman yov yo yog'iy emas, balki sizga do'st bo'lmagan odamdir. Agar ushbu maqol uning boshqa tillardagi muqobili bilan solishtirilsa, masala yanada oydinlashadi.

Temir QURBON,
filologiya fanlari nomzodi.

YO'L-PATRUL XIZMATI

KECHA

BUGUN



TUG'ILGAN KUNIMIZNI TO'RT YIL KUTAMIZ

2024-yil kabisa yili hisoblanadi. Ya'ni, joriy yilda fevral oyi 29 kundan iborat. Qarangki, aynan shu kunda tug'ilib, tavallud topgan sanasini har to'rt yilda nishonlaydigan xodimlar ham bor.

XORAZM VILOYATI



2000-yili Xonqa tumanida tug'ilganman. Maktabga borgach, tug'ilgan kunim har yili nishonlanmasligini anglab, juda xafa bo'lganman. Ota-onam meni ovutish uchun 28-fevral kuni sinfdoshlarimni uyimizga taklif qilib, tug'ilgan kunimni nishonlashardi. Lekin bu bazmlar negadir menga tatimasdi. Bir gal yangi yil arafasida opam Iroda 2012-yil taqvimini sovg'a qildi. Taqvimdagi 29-fevral sanasini ko'rib, quvonchim ichimga sig'may ketdi. Bu taqvim men uchun eng qadrlı sovg'a bo'lgandi o'shanda.

Ochig'i, hozir ham har yili tug'ilgan kunini nishonlaydigan hamkasblaringma, tengdoshlarimga, yaqinlarimga havasim keladi. Tabriklar, qutlovlar, dil izhorlari... Men esa to'rt yilda bir marotaba takrorlanadigan bu sanani intiqlik bilan kutaman. Bayramona bezatilgan dasturxon atrofida do'stlarim bilan diydorlashib, shirin suhbatlar quramiz, beg'ubor yoshlik davrimizni eslaymiz. Hayotning bunday quvonchli onlari, shirin lahzalari kimga zavq-shavq bag'ishlamaydi, deysiz.

Farida SULTONOVA,
Urganch tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi surishtiruvchi vazifasini bajaruvchi, leytenant.

FARG'ONA VILOYATI

Farg'ona shahar IIOFMB 2-sonli IIB boshlig'ining tashkiliy masalalar bo'yicha o'rinbosari, mayor Bahodirjon Tohirov 1984-yil 29-fevral kuni dunyoga kelgan.

– Oilada to'ng'ich farzandman, 3 nafar uka va singillarim bor, – deydi. – Ota-onam va yaqinlarimning tug'ilgan kunini har yili nishonlasak, meniki to'rt yilda bir marotaba keladi. Shu sababli boshqacha hayajon bilan kutamiz. Aslida har gal tavallud kunini nishonlagan odam shukrona keltirish bilan birga, o'tgan umrini sarhisob qilib, o'zining oldiga yangi-yangi maqsad va muddaolarni belgilab olishi kerak.



NAMANGAN VILOYATI



29-fevral sanasini ayniqsa, shu kuni tug'ilgan insonlar orziqib kutishadi. Sinfdosh do'stlarim, yaqinlarim, xususan, kursdoshlarim kabisa yili bo'lmasa, 28-fevral kuni qo'ng'iroq qilishib: «Sening tug'ilgan kuning bilan tabriklash esimizdan chiqmadi. Faqat tavallud sanangni kalendardayam topolmadik. Hamma joydan izlayapmiz, esiz», deb kulishadi.

Har gal tug'ilgan kunim hazil-mutoyibalarga boy bo'ladi. Ayniqsa, kursdosh do'stlarim telegram guruhda o'tkir hazillar bilan tabriklashni boshlashadi: «Biz 40 yoshga to'ldik, Fayzullo bo'lsa endi 10 yoshga kiradi» – deya o'yinchoqlar suratini jo'natishadi. Shu hazillar sababmi yo chindan ham tug'ilgan kunimni kam nishonlaganim uchunmi ancha yosh ko'rinaman. Kabisa yilida omadli insonlar tug'lsa kerak-da, deb qo'yaman o'zimga-o'zim.

Fayzullo HAKIMOV,
viloyat IIB JXX JTSB PPXB komandirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik.

SIRDARYO VILOYATI

Sirdaryo viloyati IIB YHXB Moliya va va moddiy-texnika ta'minoti bo'linmasi boshlig'i, kapitan Jamshid Abduqodirov shularning biri. U 1988-yil 29-fevralda tug'ilgan. Bu yil to'qqizinchi bor o'z tavallud kunini nishonlaydi.

– Tug'ilgan kunini har to'rt yilda nishonlash, albatta, o'zgacha tuyg'u beradi, – deydi Jamshid Abduqodirov. – Shu kuni katta tantanaga aylanib ketadi. Kursdoshlar, sinfdosh do'stlar, yaqinlarim buni turlicha talqin qilishadi. Lekin, nima bo'lganda ham, menga bu yoqadi.

Jamshid o'z ishini nihoyatda sevadiganlardan. U 2010-yilda Toshkent moliya institutini tugatgan. Yetti yil davomida bank sohasida ishladi. 2017-yildan beri ichki ishlar tizimida. U YHXB faoliyatini moddiy jihatdan tashkil etishga mas'ul. Faoliyati davomida o'z ishining ustasi ekanligi, zarur bo'lganida, hamkasblaridan o'z yordamini ayamasligi bilan barchaning e'tiborini qozongan.



BUXORO VILOYATI



Buxoro viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi 2-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor O. Ikromov o'n to'qqiz yildan beri ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib kelmoqda.

Faoliyati davomida xizmat iti bilan yuzga yaqin o'g'rilik, talonchilik va giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishga munosib hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, viloyat miqyosida o'tkazilayotgan ommaviy

tadbirlar chog'ida xavfsizlikni ta'minlashda hamkasblari bilan birgalikda faol ishtirok etyapti.

Darvoqe, kasbiga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan O. Ikromov 1984-yilning aynan 29-fevral kunida tavallud topgan. Ibratli kinologni tug'ilgan kuni bilan chin dildan muborakbod etamiz.

SALOMATLIK SABOQLARI

KONYUNKTIVIT BEZOVTA QILSA...

Butun dunyoda bo'lgani singari, so'nggi yillarda mamlakatimizda, ham ko'z kasalliklari bilan xastalanganlar soni sezilarli darajada ortdi. Xususan, ko'z va qovoq shilliq pardasi yallig'lanishi – kon'yunktivitga chalinish holatlari ko'paygan.

Ushbu xastalik konyunktivit bilan og'rikan bemor bilan bevosita muloqot davomida havo-tomchi yo'li bilan yuqadi. Bemor bilan bir xonada turish, ko'rishish, o'zganing sochig'i va buyumlaridan foydalanish, eshik tutqichlaridan ush-lash, qo'llar iflosligi hamda atrof-muhitning nojo'ya ta'siri konyunktivitni keltirib chiqaradi.

Mazkur xastalik o'tkir yoki surunkali tarzda kechadi. Qo'zg'atuvchilariga ko'ra bakterial, virusli, allergik kabi guruhlarga ajratiladi. Inson tez yuquvchi o'tkir konyunktivitga chalinganda, qovoq va ko'z soqqasi shilliq pardasida qon, limfa va hujayra unsurlari aralashmasi hamda follikulalar paydo bo'ladi. Shox pardada ham shunday holat kuzatilib, sezgirligi kamayadi. Ko'pincha quloqoldi limfa bezlari katta talashadi va paypaslaganda og'riydi. Qovoqlar tirqishining chiqindisi kam bo'ladi.

Adenovirusli konyunktivitning kataral, follikulli, epidemik kabi turlari mavjud. Xususan, ko'p uchraydigan kataral konyunktivitda qovoq va ko'z soqqasi sathida bi-




roz shish va qizarish paydo bo'ladi. Ozroq shilimshiq yiringli suyuqlik ajralib, xastalik yengil o'tishi bilan tavsiflanadi. Bu belgilar 5–6 kun namoyon bo'ladi va bemor 10–15 kunda tuzalib ketadi.

Follikulli konyunktivitda qovoqning ichki va tashqi burchagida follikulalar paydo bo'ladi. Epidemik (virusli) konyunktivit esa ko'pincha katta yoshlilarga yuqadi va inkubatsion davri davomli bo'ladi. Umumiy buyumlarni ishlatish, shuningdek, ko'z tomchisi, ko'z tomizg'ichlar kabi vositalar orqali yuqib,

oila yoki jamoaning barcha a'zolari kasallikka chalinishiga sabab bo'ladi.

Adenovirusli konyunktivit tumovga o'xshab sovuq tushgan faslda boshlanib, bemorlar ko'zida yoshlanish, qum kirganday bo'lishi, qizarish orqali namoyon bo'ladi, ozroq shilimshiq yiring chiqadi. Quloqoldi limfa bezlari kattalashadi, og'riydi. Boshda og'riq seziladi, uyqusizlik kuzatilishi mumkin. Bir haftadan so'ng bemorning ahvoli yaxshilanadi. Mazkur jihat ayrim bemorlarning davolanishni to'xtatib



Konyunktivit

Norma

qo'yishlariga turtki bo'ladi. Lekin bu davrda xastalik asoratlari ta'sirida shox pardada keng tarqalgan mayda xiralashish nuqtalari yuzaga kelishi, yosh oqishi, ko'z qamashuvi kuzatiladi. Oqibatda shox pardaning sezgirligi kamayadi. Bu esa xiralashish nuqtalarida ko'rish qobiliyatining sustlashishi yoki yo'qolishiga turtki bo'ladi. Shu bois konyunktivitda shifokor tavsiyasiga qat'iy amal qilish kerak. Davolanish jarayoni 1–2 hafta davom etadi, 7–8 haftada bemor butunlay tuzalib ketadi.

Shuni unutmaslik kerakki, konyunktivit oldini olsa bo'ladigan kasalliklar sirasiga kiradi. Buning uchun shaxsiy gigiyenaga og'ishmay rioya qilish, qo'llarni tez-tez yuvish, birovning hamda umumfoydalanadigan joylardagi sochiq va buyumlarni ishlatmaslik zarur. Kasallik

yuqish xavfini kamaytirish uchun yashash va ish joylaridagi xonalarni shamollatib turish joiz. Qolaversa, bemorlar va u bilan muloqotga kirishganlarni ajratish, foydalanilgan buyumlarni esa sterilash dardkor.

Konyunktivit alomatlari paydo bo'lganda, darhol shifokorga murojaat qilish va u tavsiya qilgan virusga qarshi kimyoterapevtik dorilar, antibiotiklar hamda boshqa muolaja hamda malhamlarni qabul qilish kerak. Shifokorga borguncha choy kompresslaridan foydalanish mumkin. Choy tarkibida bo'lgan tanin kislotasi yallig'lanishni kamaytirish, shishni pasaytirish, qolaversa, og'riqsizlantirishga xizmat qiladi.

Norsuluv TURANOVA,
Jizzax viloyati IIB
tibbiyot bo'limi
shifokor-oftalmologi.



MUTAXASSIS TAVSIYA ETADI

Ko'rish qobiliyatini uzoq yillar davomida saqlab qolish uchun bu haqda qayg'urishimiz kerak. IIV Davolash profilaktika muassasalari markaziy harbiy-tibbiy komissiya mutaxassis shifokorlar guruhi bosh mutaxassisi shifokor-oftalmologi, kapitan Nilufar Inoyatovanning tavsiyalari sizga, albatta, asqatishiga ishonamiz.

● Kompyuter ekrani qarshisida ko'p vaqt o'tkzangiz, ish kuni o'rtasida ko'zlarning charchashi va ularning qurishini sezgan bo'lsangiz kerak. Axir monitorga tikilish davomida biz ko'zlarimizni ikki barobar kam piritamiz. Shu bois ko'z mashqlarini bajaring.

● Ultrabinafsha nurlarining zararli ta'siridan himoya qilish uchun quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak yoki maxsus linza taqish kerak. Hatto bulutli kunda ham ko'zoynak taqishni unut-mang, zero qor, suv, qum va asfalt ultrabinafsha nurlarini aks-lantiradi.

● Ko'zlarga nafaqat ishlab chiqarish korxonalarida, balki uyda ham xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmagan holatlarda shikast yetkazish mumkin. Ko'zlarga mayda zarrachalar tushishi yoki kimyoviy elementlar ta'siridan himoyalash uchun ko'zoynakdan foydalaning. Sport bilan shug'ullanish uchun, masalan, suzish, chang'ida uchish yoki basketbol bilan shug'ullanish davomida ham himoyalovchi ko'zoynakdan foydalaning ma'qul.

● Qon aylanishini yaxshilovchi mahsulotlar sizni sog'lom yurak va o'tkir ko'zlar bilan ta'minlaydi. Sitrus mevalar, ko'katlar va don mahsulotlari shunday mahsulot-

lar sirasiga kiradi. Rux miqdori yuqori bo'lgan mahsulotlar: loviya, no'xat, yong'oqlar, yog'siz qizil go'sht yoki parranda go'shti ham ultrabinafsha nurlar ta'sirini oldini olishda yordam beradi.

● Sovuq kompress, antigistamin preparatlar yoki ko'z tomchilari ko'zlarning qizarishi va qichishida yordam beradi. Ko'zingizga xuddi qum kirgandek bo'lsa, ularni sovuq suv yoki izotonik aralashma bilan yuvib tashlang. Agar belgilari o'tib ket-masa, ko'zlar shishib, og'risa yoki yorug'likka ta'sirchan bo'lib qolsa, u holda, o'zbiarmonlik bilan davolanmasdan, tibbiy yordamga murojaat qilgan ma'qul.

● Ko'rish qobiliyati bilan bog'liq bo'lmagan turli kasalliklar ko'zlarga shikast yetishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, yuqori qon bosimi yoki qandli diabet ko'zlarga qon yetib kelishini qisqartiradi. Immun tizimidagi buzilishlar ham ko'rish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun jiddiy kasalliklaringiz bo'lsa, ko'zlar salomatligiga ham e'tiborli bo'ling.

● Ba'zi dori vositalarining ketma-ket qabul qilinishi ko'rish qobiliyatida muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Preparatlarni qabul qilishdan avval ularning salbiy ta'sirlari bilan tanishib chiqing.

● Ko'z pardozi uchun mo'ljal-langan suyuqlik va krem ko'ri-nishidagi pardozi vositalarida ko'zlarga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan bakteriyalar tez paydo bo'ladi. Ochilgan kosmetika vositalaridan uch oy ichida foydalanish kerak. Qo'llash muddati o'tib ketgan pardozi vositalaridan foydalanmang.



Культурный досуг

ДАРЯ КРАСОТУ МУЗЫКИ



Под руководством главного дирижера и начальника Оркестровой службы МВД Республики Узбекистан подполковника Мукимжона Махмудова состоялся отчетный концерт Отдельного образцово-показательного оркестра МВД. Талантливые музыканты представили зрителям свои достижения. Традиционно вела мероприятие народная артистка Республики Узбекистан Галина Мельникова. На концерте звучали разнообразные произведения, от классических композиций до популярных хитов.



Во Дворце культуры МВД Республики Узбекистан легко и динамично прозвучали «Классическое рондо для саксофона альты с оркестром», «Старый ворчун» Юлиуса Фучика, «Концерт для валторны с оркестром № 1» Рихарда Штрауса под дирижерством начальника оркестра капитана Аъзама

Юлдашева. Солисты Рахмонжон Имомназаров, Махлиё Худойкулова, Абдураасул Абдурахимов оказались на высоте, их исполнение вызывали восторг и аплодисменты зрителей.

Неизгладимое впечатление произвели песня из кинофильма «Махаллада дув-дув гап» «Сайр этайлик»,

а также музыка из кинофильма «Пираты Карибского моря». Концертные произведения, такие как «Синяя вечность» Муслима Магомаева, аргентинское танго Консуэло Веласкес и многие другие, позволили оркестрантам продемонстрировать мастерство исполнения музыки в разных стилях и жанрах. Солисты Саидазиз Абдуллаев и Дилшод Джалолов великолепно исполнили песню «It's a man's man's world» Джеймса Брауна, а в завершение прозвучало попурри «Latin pop special».

Яркий концерт стал настоящим праздником для ценителей искусства, доказательством того, что музыка способна объединять людей, дарить радость.

Соб. корр.



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(4-martdan 10-martgacha)



Qo'y. Bu hafta kasb-hunar va moliyaviy jabhada sizga omad kulib boqadi. Lekin har bir ishda boshqaruvni o'z qo'lingizga olib, kuchli ishonch va qat'iyat bilan harakat qiling. Bu davrda his-hayajonga berilmay, imkon qadar bosiqlik bilan ish yuritish lozim.



Buzoq. Haftaning ilk kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, hatto sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko'p joylarda bo'lishingiz kutilmoqda. Faqat bu orada o'z vaqtida dam olishni, salomatlikka e'tibor qaratishni ham unutmang.



Egizaklar. Dushanba va seshanba shaxsiy hayotga e'tibor qaratish uchun qulay palla. Keyingi kunlar odatdagidek bir xilda va zerikarli o'tishi kutilmoqda. Hafta so'ngi og'ir keladi, shuning uchun me'yordan ortiq g'ayrat bilan harakat qilmaslikka urining.



Qisqichbaqa. Oila a'zolaringiz bilan munosabatda ba'zi qarashlaringizni o'zgartirib, sabrli va shirinso'z bo'ling. Ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashing. Hafta so'ngida yaqinlaringiz bilan birga toza havoda sayr qiling.



Arslon. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun yaqinlaringizga kutilmagan sovg'a hozirlang. Ular bu harakatingizni, albatta, qadrlashadi. Haftaning ikkinchi yarmida ruhiyatingiz yaxshilanib, kayfiyatingiz ko'tariladi.



Parizod. Shu kunlarda kim bilandir tortishgan va janjallashgan bo'lsangiz, imkon qadar tezroq yarashishga harakat qiling. Uzeygan nizolar yaxshilik olib kelmaydi. Ish joyingizda zimmangizga murakkab vazifa yuklanishi mumkin. Mazkur hafta ish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish uchun maqbul davrdir.



Tarozi. Ruhiy tushkunlik va bezovtalik hissi sizga bu hafta pand berishi mumkin bo'lgan holatlar hisoblanadi. O'z hislaringizni jilovlashga harakat qiling. Bu davrdagi uchrashuvlar yoqimli, ba'zilari esa hatto esda qolarli bo'ladi. Mehmonga taklif etishsa, zinhor rad etmang – bu hayotingizga o'zgacha zavq bag'ishlaydi.



Chayon. Ushbu davrda ko'pgina ustuvor va ahamiyatga molik ishlarni hal qilishga erishasiz. Nimanidir imzolashdan oldin, uni diqqat bilan o'rganib chiqishni unutmang. Hafta so'ngida intiqib kutilgan hordiq onlaridan bahramand bo'lasiz.



O'qotar. Hayotingizda jiddiy o'zgarishlarga tayyor turing. Umrini ikkinchi jufti bilan bog'lashga ulgurmagannlarni bu hafta yangi tanishuvlar kutmoqda. O'zingizni yomon his qila boshlasangiz, vaqtni toza havoda, tabiat qo'ynida o'tkazish siz uchun juda foydali bo'ladi.



Tog' echkisi. Bu davrda ish faoliyati old safdan o'rin egallaydi. Rahbariyat tomonidan sizga kelajakda kasbiy o'sishingizga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan murakkab vazifa topshiriladi. Shu sababdan imkon qadar diqqatli, hushyor va g'ayrat-shijoatli bo'lishga harakat qiling.



Qovg'a. Bu hafta hayotingizda nimaiki sodir bo'lmasin, hammasini yaxshilikka yo'yishga harakat qiling. Oilada ba'zi bir tushunmovchilik va ko'ngilxiraliklar kuzatilishi mumkin. Ehtimol, o'z manfaatlaringizni chetga surib, qadrdonlaringizga yon bergan holda murosa yo'lini tutishingizga to'g'ri keladi.



Baliq. Sizni qizg'in hafta kutmoqda. Ham ishdagi, ham oilaviy turmushdagi masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Ammo xavotir olmang, sa'y-harakatlaringiz o'z natijasini berib, barcha muammolarni hal etishning uddasidan chiqishga erishasiz. Transport vositasini boshqaruvchilar bu hafta davomida o'ta ehtiyotkor va diqqatli bo'lishlari lozim.



BUGUN TUNDA KELARMISH BAHOR...

Derazangdan mo'ralab asta,
Gul yuzingdan bo'lib shikasta,
Uzun qishga siltab qo'lini,
Ham qalbingdan boshlab yo'lini,
To'qqiz oyki, yelarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Qor-u muzni suvga g'arq qilib,
Izg'irinni butkul tark qilib,
Eshitgandek mening nolamni,
Guldastaga o'rab olamni –
Tushda boshing silarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Co'zallikni eltib jahonga,
Sano aytib har o'tgan onga,
Jamolingga bo'lib mahliyo,
Istarangdan olgancha ziyo –
Bizga iqbol tilarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Unutilar xazonrez kuzak,
Tabassuming yuzingga bezak.
Mehrlaring menga og'dirib,
Yong'irlarin yerga yog'dirib,
Suvlarini elarmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

Hissiyotga to'ldirib dilni,
Kengaytirib kichik ko'ngilni,
Duolarga ijobat yetib,
Tabiatni chamanzor etib,
Baxtimizdek kularmish bahor,
Bugun tunda kelarmish bahor...

HANGOMA

«XITOYCHA USUL»

Toqqa, Azim Suyunning qishlog'iga borgandik. Ko'pchilik edik. Mehmonlarni bir xonadonga olib kirishdi. Dasturxon to'kin. Buni qarangi, boshqa noz-ne'matlar qatori bir piyola asal ham bor ekan. Hammaning ko'zi o'sha piyolada.

— Toza asalga o'xshaydi, — dedi mehmonlardan biri. — Hididan sezilib turibdi.

— Tog'ning asali zo'r bo'ladi-da, — dedi ikkinchisi. — Hozir tog'da ham toza asal qolmagan, — dedi yana biri. Gap aylanib asalning toza-notozaligini aniqlashga kelib taqaldi. Birov «qoshiqning uchiga ilib cho'zib ko'rish kerak, agar bir quloq ko'tarilganda ham asal uzilib qolmay ipdek tushaversa, toza bo'ladi», dedi.

Yana kimdir choyga solib ko'rishni maslahat berdi. Tag'in kimdir asalni kaftga surib, ruchka bilan chizishni taklif qildi. Indamay tursak, asal xomtalash bo'ladigan. Erkin Vohidov menga qarab qo'ydi-da, so'radi:

— Asalni sinashning xitoycha usulini eshitgansiz-a?

Hech qanaqa «xitoycha usul»ni bilmasam ham, bir «shumlik» boshlanayotganini sezib, darrov tasdiqladim:

— Eshitganman! Eng qulay usul shu!

— Undan tashqari zamonamiz ruhiga ham mos keladi, — dedi Erkin Vohidov. — Haqiqiy demokratik usul.

Hamma «xitoycha usul»ga qiziqib qoldi.

— Aytsam o'rganib olasizlar-da, — dedi Erkin Vohidov sirli qilib. Davradagilar yalinishga tushdi.

— Bo'lmasa gap bundoq, — dedi Erkin aka. — Hozir oramizdan bitta odamni «asal sinovchi» qilib saylaymiz. Kim eng ko'p ovoz olsa, «sinovchi» o'sha bo'ladi. «Sinovchi» piyoladagi asalni bir ko'tarishda oxirigacha simiradi. Soatga qarab turamiz. Agar yarim soatdan keyin og'iz-burnidan varaq-varaq qon kelib o'lib qolsa, bundan chiqdi, asal — toza asal bo'ladi. Qani, o'zining nomzodini qo'yadigan odam qo'lini ko'tarsin!

Bittayam «nomzod» topilmadi.

— Nachora, — dedi Erkin Vohidov mushkul muammo qarshisida qolgan odamdek chuqur o'yga tolib. — «Do'sting uchun asal yut», degan gap bor. Keling, do'stlar uchun qurbon bo'lsak, bo'pmiz-da!

«Jasorat» ko'rsatib, ikkovlashib piyolani bo'shatdik. Xayriyat, asal «zo'r emas» ekan, yomon ta'sir qilgani yo'q.

O'tkir HOSHIMOV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №4086.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

